Предложенная структурная модель финансовой политики (цели – принципы – направления – инструменты – субъекты – нормативная база) раскрывает её как целостную правовую систему, обеспечивающую баланс между стимулированием предпринимательства, фискальной устойчивостью и защитой экономических прав бизнеса. Включение механизмов участия предпринимателей, расширение практики публичных консультаций, усиление ответственности органов власти и повышение прозрачности финансовых решений становятся ключевыми условиями повышения доверия бизнеса и устойчивости финансовой политики.

REFERENCES

1. Chernyavsky, S. E. (2021). *Gosudarstvennye finansy: kontseptsii i instrumenty regulirovaniya* [Public Finance: Concepts and Regulatory Instruments] (p. 240). Minsk: Novye Znaniya Publ.
2. Ebner, A. (2012). *Embedded Entrepreneurship: The Institutional Dynamics of Innovation* (pp. 45–51). London; New York: Routledge Publ.
3. France Diplomacy (2019, July). Ministerstvo Yevropy i inostrannykh del Frantsii. Predprinimatel'stvo i investitsii vo Frantsii [French Ministry for Europe and Foreign Affairs. Entrepreneurship and Investment in France]. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/coming-to-france/http-publication-diplomatie-gouv-fr-en-coming-to-france-investing-in-france/>
4. Gryaznova, A. G. & Barulin, S. V. (2020). *Finansovaya politika gosudarstva* [Financial Policy of the State] (pp. 33–38). Moscow: Finance and Statistics Publ.
5. Marochkina, V. M. (2020). *Finansovoye pravo Rossii* [Financial law of Russia] (p. 93). Moscow: Yurayt Publ.
6. OECD. (2011). *Regulatory Policy and Governance: Supporting Economic Growth and Serving the Public Interest* (pp. 34–36). Paris: OECD Publ.
7. OECD. (2019). *Japan: Modernising Government* (pp. 56–58). Paris: OECD Publ.
8. Pilikin, G. G. (2017). *Stanovlenie finansovogo prava Rossii* [Formation of Financial Law in Russia] [Monograph] (p. 320). Moscow: Law Firm Contract Publ.
9. Panskov, V. G. (2021). *Finansovoe pravo* [Financial Law] (p. 540). Moscow: Yurayt Publ.
10. Polyak, G. B. (2022). *Finansy* [Finance] (11th ed., p. 768). Moscow: UNITY-DANA Publ.
11. Puzankevich, O. A. (2019). *Finansovaya politika i finansovaya sistema* [Financial Policy and Financial System] (p. 180). Moscow: Infra-M Publ.

12. Podyablonskaya, L. M. (2020). Sotsial'no-ekonomicheskaya napravlennost' finansovoy politiki gosudarstva [Orientation of the State Financial Policy]. *Finance and Credit*, 6, 22–27.
13. Rodionova, V. M. (2020). Finansy [*Finance*]. (9th ed., p. 640). Moscow: Yurayt Publ.
14. Stiglitz, J. E. (2015). *Economics of the Public Sector*. (4th ed., pp. 66–70). New York: W. W. Norton & Company Publ.
15. Uesugi, I., & Yamashiro, G. (2020). The Role of Government Financial Institutions in Japan. *Journal of Financial Stability*, 48, 100.
16. Wöhe, G., & Döring, U. (2020). *Einführung in die Allgemeine Betriebswirtschaftslehre [Introduction to General Business Administration]* (pp. 219–221, 1050). München: Vahlen Publ.
17. Yuzvovich, L. I., Isakova, N. Yu., & Smorodina, E. A. (2020). *Finansovaya politika [Financial policy]* (p. 240). Yekaterinburg: Ural State University of Economics Publ.
18. Zubets, A. P., & Kurlyandsky, S. I. (2021). Finansovaya politika: sovremennyy vzglyad [Financial Policy: A Modern View]. *Financial Analytics*, 2, 14–18.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/UOVJ3831

UDC: 347.9(045)(575.1)

ФИНАНСОВО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Жураев Шерзод Юлдашевич,

кандидат юридических наук,

доцент кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

ORCID: 0000-0003-3857-9751

e-mail: sh.jurayev@tsul.uz

Аннотация. В статье исследуются финансово-правовые механизмы регулирования занятости в Республике Узбекистан. Принятие Закона «О занятости населения» (2020 г.) и нового Трудового кодекса (2023 г.) сформировало нормативную основу для объединения трудовых, социальных и административных норм. Однако реализация этих положений во многом зависит от финансово-правовых инструментов – субсидий, грантов, налоговых льгот и компенсаций работодателям. В работе проанализированы мнения национальных учёных, в том числе рассмотрение финансирования занятости как инструмента реализации конституционных прав, коллизии между административным и финансовым правом, правовая уязвимость самозанятых, формальный характер обжалования решений органов занятости. Автор выявляет системные проблемы: ограниченность финансирования, слабая адресность субсидий, дублирование функций органов и недостаточная защита работников цифровых платформ – и приходит к выводу о необходимости кодифицировать процедуры занятости, закрепить минимальные стандарты бюджетного финансирования, усилить цифровую прозрачность и расширить правовые гарантии для самозанятых и работников новых форм занятости, включая дистанционную, платформенную и гибридную работу, что отвечает современным вызовам цифровой трансформации экономики.

Ключевые слова: занятость, субсидии, бюджет, самозанятые, процедуры, пособия

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI MOLIYAVIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Jurayev Sherzod Yuldashevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida dotsenti,

yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida bandlikni tartibga solishning moliyaviy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun (2020-yil) hamda yangi Mehnat kodeksi (2023-yil)ning qabul qilinishi mehnat, ijtimoiy va ma'muriy normalarni birlashtirish uchun me'yoriy asosni shakllantiradi. Biroq ushbu qoidalarni amalga oshirish ko'p jihatdan moliyaviy-huquqiy vositalarga – subsidiyalar, grantlar, soliq imtiyozlari va ish beruvchilarga

to'lanadigan kompensatsiyalarga bog'liq. Tadqiqotda milliy olimlarning fikrlari, jumladan, bandlikni moliyalashtirishga konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirish vositasi sifatida qarash, ma'muriy va moliyaviy huquq o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy zaifligi, bandlik organlari qarorlari ustidan shikoyat qilishning rasmiy tabiati tahlil qilingan. Muallif quyidagi tizimli muammolarni aniqlaydi: moliyalashtirishning cheklanganligi, subsidiyalarning samarali yo'naltirilmaganligi, davlat organlari vazifalarining takrorlanishi va raqamli platformalar xodimlarining yetarlicha himoyalanganligi. Shuningdek, muallif bandlik qoidalarini kodlashtirish, budjetdan moliyalashtirishning minimal standartlarini belgilash, raqamli shaffoflikni kuchaytirish hamda o'zini o'zi band qilganlar va bandlikning yangi shakllari, jumladan, masofaviy, platformali va gibrid ish bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun huquqiy kafolatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu choralar iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasidagi zamonaviy muammolarga javob beradi.

Kalit so'zlar: bandlik, subsidiyalar, budjet, o'zini o'zi band qilganlar, tartib-taomillar, nafaqalar

FINANCIAL AND LEGAL REGULATION IN THE SPHERE OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Juraev Sherzod Yuldashevich,

Associate Professor at the Department
of Administrative and Financial Law,

Candidate of Legal Sciences,
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the financial and legal mechanisms for regulating employment in the Republic of Uzbekistan. The adoption of the Law "On Employment of the Population" (2020) and the new Labor Code (2023) formed the normative basis for combining labor, social, and administrative norms. However, the implementation of these provisions largely depends on financial and legal instruments - subsidies, grants, tax benefits, and compensations to employers. The work analyzes the opinions of national scholars, including the consideration of employment financing as a tool for realizing constitutional rights, the conflict between administrative and financial law, the legal vulnerability of self-employed individuals, and the formal nature of appealing decisions of employment agencies. The author identifies systemic problems: limited funding, weak targeting of subsidies, duplication of bodies' functions, and insufficient protection of digital platform workers and concludes that it is necessary to codify employment procedures, consolidate minimum standards of budget financing, strengthen digital transparency, and expand legal guarantees for self-employed and workers of new forms of employment, including remote, platform, and hybrid work, which responds to modern challenges of the digital transformation of the economy.

Keywords: employment, subsidies, budget, self-employed, procedures, benefits

Введение

В условиях рыночной экономики занятость населения становится одним из ключевых направлений государственной политики. Конституция Республики Узбекистан закрепляет право каждого гражданина на труд и защиту от безработицы (ст. 37). Для реализации этого права в последние годы были приняты важные нормативные акты: Закон «О

занятости населения» (2020 г.) и новый Трудовой кодекс (2023 г., далее – ТК). Они обеспечили нормативную основу для согласованности трудовых, социальных и административных норм.

Однако на практике реальное наполнение права на труд зависит от финансово-правовых инструментов – субсидий, грантов, налоговых льгот, компенсаций работодателям, финансирования про-

грамм переквалификации. Именно они превращают конституционные гарантии в реальные механизмы. Поэтому анализ финансово-правовых механизмов занятости и выявление их проблем имеет первостепенное значение.

Методологическую основу исследования составили различные правовые и научные источники. Базовыми нормативно-правовыми актами выступили Конституция Республики Узбекистан, Закон «О занятости населения» № ЗРУ-642 от 20 октября 2020 года, новый Трудовой кодекс 2023 года, а также Бюджетный кодекс и ряд постановлений Кабинета Министров, регламентирующих порядок предоставления субсидий и грантов. Эти документы позволяют рассмотреть взаимосвязь трудового, социального и административного права через призму финансово-правовых инструментов.

Важным направлением анализа стало изучение научных работ ведущих национальных специалистов в области административного и финансового права. Так, Saidov (2021) акцентирует внимание на конституционных основах финансирования программ занятости, Tursunov (2020) исследует коллизионные аспекты взаимодействия финансового и административного права, Karimov (2021) поднимает проблему цифровой экономики и правового положения самозанятых, а Fayziev (2022) обращается к вопросам процедурных гарантий и судебного обжалования решений органов занятости. Эти позиции позволили выявить разные подходы в национальной доктрине и очертить направления научной полемики.

Применялся также сравнительно-правовой метод, позволяющий сопоставить опыт Узбекистана с другими странами. Анализ проводился на примере законодательства и практики России и Казахстана, где финансово-правовые меры в сфере занятости реализуются через админи-

стративные процедуры. В частности, Казахстан использует портал *enbek.kz* для цифрового управления занятостью, а в России акцент делается на системе квотирования и пособий. Такое сопоставление позволяет выявить сильные и слабые стороны узбекской национальной модели.

Наконец, в исследовании применялся институциональный подход. Он позволил рассмотреть роль государственных органов, участвующих в реализации финансово-правовых мер: Агентства по внешней трудовой миграции, Центров занятости, Министерства финансов и налоговых органов. Особое внимание уделялось координации их деятельности, так как именно от согласованности действий этих институтов зависит эффективность предоставления субсидий, грантов и пособий.

Основная часть

Анализ показал, что узбекская модель занятости строится как связка трёх блоков: 1) материальные гарантии трудового права (ТК), 2) социальные выплаты и услуги (Закон № ЗРУ-642) и 3) административные процедуры доступа к мерам поддержки (регистрация безработного, направление на обучение, назначение пособий). Реализация этой триады возможна только при надлежащем финансово-правовом обеспечении (субсидии, гранты, компенсации), которое «переводит» заявленные права в практику финансируемых программ (Saidov, 2021).

Ключевыми инструментами выступают субсидии на трудоустройство и предпринимательство, гранты на обучение/переквалификацию, компенсации работодателям за наём уязвимых групп и налоговые послабления для начинающих работников и МСП. Их назначение – снизить издержки входа на рынок труда и нивелировать риски работодателя (Mirzaev, 2020). По объёму и механизму эти инструменты частично сближаются с зарубежными схемами ALMP (Active

Labour Market Policies), но зависят от процедурной реализации (Craig, 2020).

Полевые данные ведомств и доктринальные оценки свидетельствуют о слабой «адресности» субсидий – часть получателей не относится к наиболее уязвимым, а действительно нуждающиеся не проходят по тем ли иным критериям процедуру отбора. Причины – фрагментированные базы данных и формальные (для галочки) проверки заявок (Saidov, 2021; Mirzaev, 2020). Отсюда – риск неэффективного расходования средств и завышенной административной нагрузки.

Выявлены устойчивые коллизии между финансовыми регламентами и административными процедурами (например, сроки/основания отказа в субсидии и порядок её бюджетного подтверждения), что приводит к задержкам финансирования и спорам о компетенции между органами (Tursunov, 2020). Это ещё раз подтверждает необходимость унификации терминов и процессуальных стадий в одном акте (или консолидированном регламенте) (Cane, 2019).

Самозанятые и работники платформ фактически выпадают из большинства субсидий и страховой защиты: отсутствует ясная привязка к статусу получателя, трудовая функция смешивается с предпринимательской, а налоговая регистрация не тождественна включению в программы занятости (Karimov, 2021). Международная доктрина показывает, что для этих категорий требуются специальные гарантии и модификации стандартных инструментов (Schiek, 2019; Barnard, 2019).

Порядок признания безработным, отбора на обучение и назначения субсидий остаётся процедурно уязвимым: заявители редко имеют полноценное «право быть выслушанными», а решения нередко ограничиваются формальной мотивировкой (Fayziev, 2022). Сравнение с лучшими

практиками административного права подтверждает – надёжность доступа прямо зависит от наличия слушания, ясной мотивировки и понятной модели обжалования (Craig, 2020; Cane, 2019).

Молодёжные субсидии и гранты дают ощутимый эффект в городах, но в районах с низкой экономической активностью наблюдается недоосвоение средств, а показатель устойчивости занятости после субсидии ниже (Zhumaev, 2021). Это указывает на необходимость территориально дифференцированных критериев и сопровождения получателей.

Квотирование рабочих мест для лиц с инвалидностью и компенсации затрат работодателя пока используются неравномерно и частично формально: препятствуют информационные издержки, риски комплаенса и неопределённость длительности поддержки (Khasanov, 2022). Результат – недобор по квотам и низкая конверсия компенсаций в устойчивые рабочие места.

Пособия по безработице и выплаты на период переподготовки зачастую не интегрированы с активными мерами: отсутствуют «мягкие» механизмы включения получателя пособия в обучение и стажировки, что удлиняет период безработицы (Abdurasulova, 2021; Rakhimova, 2021). Здесь полезен опыт ЕС, где социальная поддержка жёстко связана с индивидуальным планом занятости (Barnard, 2019).

Недостаточная координация центров занятости, финансовых и налоговых органов порождает разрывы между «решением о поддержке» и «реальным перечислением» средств, а также дублирование проверок (Safarov, 2019). Цифровые решения частично нивелируют проблему, но требуют единой архитектуры данных и регламентов межведомственного обмена.

Даже при расширении наборов инструментов их устойчивость ограничена бюджетными циклами: в периоды консо-

лидации секвестр первыми затрагивает переквалификацию и грантовые линии (Saidov, 2021). Результаты исследования указывают на необходимость минимальных бюджетных стандартов и приоритизации финансирования активных мер занятости (Freedland, 2018).

Содержательная часть мер в Узбекистане в целом совместима с подходами, ориентированными на социальные права и достойную занятость, но процедурный контур (мотивировка, обжалование, транспарентность) пока отстаёт от стандартов *due process*, влияя на фактическую реализуемость прав (Schiek, 2019; Barnard, 2019).

Отмечается феномен краткосрочной занятости после получения субсидии: часть получателей прекращает деятельность уже через 6–12 месяцев, сталкиваясь с издержками комплаенса и отсутствием продления налоговых послаблений (Mirzaev, 2020). Следовательно, повышение эффективности требует продуманной многоуровневой поддержки, а не разовых выплат.

Текущие индикаторы преимущественно фиксируют количество выданных субсидий и заключённых договоров, тогда как значительно реже оцениваются устойчивость занятости, динамика доходов и качество рабочего места. Для корректного измерения эффекта необходимы *outcome*-метрики – итоговые показатели (*retention* – устойчивость занятости, *wage growth* – рост заработка, *transition to formal employment* – переход в формальный сектор) и публичная отчётность (Craig, 2020; Mirzaev, 2020).

Результаты исследования показали, что финансово-правовые меры в сфере занятости в Узбекистане развиваются в логике интеграции трёх отраслей права: трудового, социального и административного. С одной стороны, нормы трудового права фиксируют свободу трудового

договора, с другой – социальное право закрепляет гарантии при утрате дохода, а административное – определяет процедуры доступа к мерам поддержки. Однако связующим элементом между этими блоками выступают именно финансово-правовые инструменты.

Saidov (2021) указывает, что эффективность занятости как социального института напрямую зависит от объёмов бюджетного финансирования и прозрачности распределения субсидий. Он подчёркивает, что без закрепления минимальных стандартов расходов на занятость конституционное право на труд остаётся декларацией. В то же время Tursunov (2020) обращает внимание на коллизионный характер правового регулирования: нормы финансового и административного права вступают в противоречие при определении сроков и порядка предоставления субсидий. Его позиция показывает, что финансовая обеспеченность программ должна сопровождаться унификацией процессуальных правил.

Karimov (2021) поднимает вопрос о самозанятых и работников платформ, которые фактически исключены из системы государственных субсидий. Он отмечает, что в условиях цифровой экономики именно эта категория составляет значительную долю трудоспособного населения и их исключение подрывает эффективность всей системы занятости. Эту точку зрения поддерживает и Abdurasulova (2021), которая указывает, что пособия по безработице в нынешнем виде не отвечают требованиям гибкости и не охватывают новые формы занятости.

Fayziev (2022) делает акцент на процедурной стороне: он утверждает, что система обжалования решений центров занятости носит формальный характер и не гарантирует реальной защиты права на труд. Эта позиция сближается с подходом

зарубежных исследователей. Так, Craig (2020) считает, что финансирование социальных программ должно сопровождаться обязательной мотивировкой решений и возможностью их судебного пересмотра. Cane (2019) добавляет, что отсутствие процессуальных гарантий ведёт к дискриминации уязвимых групп.

Отдельного внимания заслуживает территориальный аспект. Zhumaev (2021) указывает, что молодёжные субсидии распределяются неравномерно, регионы с низкой экономической активностью получают меньше поддержки, чем крупные города. Подобные выводы совпадают с международными наблюдениями: Schiek (2019) обращает внимание, что качество занятости зависит не только от наличия субсидий, но и от равного доступа к ним.

Выводы

Результаты исследования позволяют сформулировать следующие выводы:

1. Финансово-правовые меры занятости в Узбекистане являются неотъемлемой частью реализации конституционного права на труд, однако их эффективность ограничивается рядом структурных проблем.

2. Отечественные учёные (Саидов, Турсунов, Каримов, Файзиев, Жумаев)

сходятся во мнении, что без унификации процедур и обеспечения адресности субсидий государственные программы будут носить декларативный характер.

3. Зарубежная доктрина (Craig, Cane, Freedland, Schiek, Barnard) подтверждает, что прозрачность, мотивировка решений и судебный контроль являются обязательными условиями результативности программ занятости.

4. В условиях цифровой экономики необходимо разработать специальные правовые механизмы защиты самозанятых и работников платформ, чтобы исключить их выпадение из системы.

5. Для повышения устойчивости программ требуется закрепить минимальные стандарты бюджетного финансирования и обеспечить территориальную сбалансированность распределения средств.

Итак, финансово-правовое регулирование занятости в Узбекистане находится в стадии активного формирования. Следующий шаг – переход от декларативных норм к полноценным процедурам с прозрачными стандартами и адресной поддержкой. Только в этом случае будет обеспечено эффективное соединение трудового, социального и административного права в сфере занятости.

REFERENCES

1. Abdurasulova, D. T. (2021). *Posobiya po bezrabotitse v Uzbekistane [Unemployment benefits in Uzbekistan]* (pp. 190, 102–106). Tashkent: Adolat Publ.
2. Barnard, C. (2019). *EU Employment Law* (pp. 520, 210–215). Oxford: Oxford University Publ.
3. Craig, P. (2020). *Administrative Law* (pp. 980, 420–425). Oxford: Oxford University Publ.
4. Cane, P. (2019). *Administrative Law* (pp. 450, 91–93). Oxford: Hart Publ.
5. Fayziev, G. M. (2022). *Administrativnye protsedury i trudoustroystvo [Administrative procedures and employment]* (pp. 175, 56–61). Tashkent: Adolat Publ.
6. Freedland, M. (2018). *The Personal Employment Contract* (pp. 356, 29–35). Oxford: Oxford University Publ.
7. Khasanov, U. Zh. (2022). *Kvoty i kompensatsii v sfere zanyatosti [Employment quotas and compensations]* (pp. 200, 120–123). Tashkent: Universitet Publ.

8. Karimov, I. T. (2021). *Tsifrovaya ekonomika i zanyatost'* [Digital Economy and Employment] (pp. 190, 84–90). Tashkent: Iqtisodiyot Publ.
9. Mirzaev, B. Sh. (2020). *Gosudarstvennye subsidii v sfere zanyatosti* [State subsidies in the field of employment] (pp. 222, 91–95). Tashkent: Yangi asr avlodi Publ.
10. Rakhimova, M. A. (2021). *Sotsial'nye garantii zanyatosti* [Social guarantees of employment] (pp. 198, 78–83). Tashkent: Universitet Publ.
11. Saidov, A. Kh. (2021). *Finansovaya i pravovaya osnova trudoustroystva* [Financial and legal basis for employment] (pp. 210, 145–150). Tashkent: Adolat Publ.
12. Safarov, D. O. (2019). *Finansovaya koordinatsiya zanyatosti* [Financial Coordination of Employment] (pp. 205, 134–136). Tashkent: Universitet Publ.
13. Schiek, D. (2019). *Economic and Social Rights in Employment* (pp. 275, 54–59). London: Routledge Publ.
14. Tursunov, A. F. (2020). *Kollizii finansovogo i administrativnogo prava v sfere trudovogo prava* [Conflicts of financial and administrative law in the field of labor law] (pp. 25097–101). Tashkent: Universitet Publ.
15. Zhumaev, I. A. (2021). *Trudoustroystvo molodezhi i pravovoe regulirovanie* [Youth employment and legal regulation] (pp. 185, 77–80). Tashkent: TSUL Publ.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/VQBD9144

UDC: 342.9:378.1(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK BAZASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

G'oziyev Kozimbek Jovlonbekovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası dotsenti v.b.,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0002-8093-7332

e-mail: kozim@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlarning bir qismi bo'lgan oliy ta'limni 2030-yilga qadar rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda statistik ma'lumotlar, ma'muriy islohotlarning mazmun-mohiyati, boshqaruvni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Milliy qonunchilikni o'rganish barobarida oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi, davlatning bu sohada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishish yo'lidagi qilinishi lozim bo'lgan masalalar yoritib berildi. Shuningdek, axborot va raqamlashtirish asrida oliy ta'lim sohasini tashkil etish va boshqaruvini takomillashtirish, davlat organlari bilan oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro munosabatini tartibga solish hamda muvofiqlashtirish holatlari tahlil etildi. Davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga taqdim etilgan preferensiyalarning o'zaro nisbati o'rganildi. Xorijiy tajriba asosida boshqaruvni tashkil etish masalasi ko'tarilib, qiyoslash usullaridan foydalangan holda umumiylik, o'xshashlik va o'ziga xosliklar o'rganildi, tegishli xulosalar chiqarilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari haqida taklif-tavsiyalar bildirildi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga e'tibor qaratgan holda oliy ta'lim tashkilotlarining ichki va tashqi boshqaruvi sohasidagi ayrim jihatlar tahlil qilinib, ta'lim xablarini yaratishning ijobiy holatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ma'muriy islohotlar, boshqaruv, raqamlashtirish, moliyaviy erkinlik, akademik mustaqillik, tashkilot

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ БАЗЫ, РЕГУЛИРУЮЩЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гозиев Козимбек Жовлонбекович,

доктор философии (PhD) по юридическим наукам,

и. о. доцента кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье рассмотрены вопросы развития высшего образования до 2030 года, являющиеся частью проводимых в нашей стране административных реформ. На основе научных трудов отечественных и зарубежных исследователей, а также статистических данных проанализированы содержание и сущность административных

преобразований, особенности осуществления управления в данной сфере. Наряду с изучением национального законодательства освещены вопросы развития высших образовательных организаций, а также задачи, поставленные государством и необходимые меры для достижения определённых целей в данной области. В статье также исследованы процессы совершенствования организации и управления сферой высшего образования в эпоху информации и цифровизации, вопросы регулирования и координации взаимодействия государственных органов и высших образовательных организаций. Изучено соотношение предоставленных государственным и негосударственным высшим образовательным организациям преференций. На основе зарубежного опыта рассмотрены вопросы организации управления, при этом с применением сравнительных методов выявлены общие черты, сходства и особенности; сформулированы соответствующие выводы и предложения относительно направлений научно-исследовательских работ, которые необходимо осуществить в будущем. Кроме того, уделено внимание отношениям государственно-частного партнёрства: проанализированы отдельные аспекты внутреннего и внешнего управления высшими образовательными организациями, а также раскрыты позитивные стороны создания образовательных хабов.

Ключевые слова: высшее образование, административные реформы, управление, цифровизация, финансовая свобода, академическая независимость, организация

ADMINISTRATIVE AND LEGAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF HIGHER EDUCATION UNTIL 2030 DURING THE PERIOD OF ADMINISTRATIVE REFORMS

Goziev Kozimbek Jovlonbekovich,

Acting Associate Professor at
the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. In this article, the issues of the development of higher education until 2030, which is a part of the ongoing administrative reforms in our country, the scientific works of national and foreign scientists and the analysis of statistical data, the essence of the administrative reforms, and the specific features of the implementation of management are analyzed. Along with the study of the national legislation, the development of higher education organizations and the issues that should be done in order to achieve the goals and tasks set by the state in this field were highlighted. Also, cases of improving the organizational and management of higher education in the age of information and digitization, regulation, and coordination of interaction between state bodies and higher education organizations were analyzed. The issue of management organization based on foreign experience was raised, commonalities, similarities, and peculiarities were studied using comparative methods, relevant conclusions were drawn, and suggestions were made about the directions of scientific research work to be carried out in the future. Also, some aspects of internal and external management of higher education organizations are analyzed with a focus on public-private partnership relations, as well as positive cases of educational hubs creation are revealed.

Keywords: higher education, administrative reforms, governance, digitization, financial freedom, academic independence, organization

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tashkil etish va boshqarish masalasi mamlakatimizda tahlil, tanqid va isloh qilinayotgan asosiy yo'nalishlardan biridir. Sababi amalga oshiri-

layotgan barcha ma'muriy islohotlarni to'g'ri olib borish birinchi navbatda oliy ta'limni tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy salohi-

yatni rivojlantirish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan ta'limni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev (2020) o'z chiqishlarida ta'lim masalasiga bir necha bor jamoatchilik e'tiborini qaratib: "Ilm-fan, ta'lim va tarbiya taraqqiyotning asosi, mamlakat va xalq qudratini oshiruvchi kuch ekanligi barchamizga ayon. Ertangi kun, Vatan kelajagi ta'lim tizimi va farzandlarimiz bugun olayotgan tarbiya va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqdir, hozirgi kunda davlat oldida shunday muhim vazifa turibdiki, mamlakatda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga asoslangan "uchinchi Uyg'onish" protsessini rag'batlantirish lozim", – deb asosli ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga o'rtacha daromadga ega mamlakatlar guruhining yuqori qismiga o'tishni rejalashtirmoqda, buning uchun mamlakat oliy ta'lim tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali o'z iqtisodiyotini yuqori qo'shimcha qiymatga ega xizmatlar va mahsulotlar bo'yicha raqobatbardosh ustunliklarga ega sanoatlashgan iqtisodiyotga aylantirishi kerak.

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determinizm prinsiplari, xronologik uslub, statistik, qiyosiy tahlil, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llandi.

Asosiy qism

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi o'quv jarayoni nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki kelajakda oliy ta'limdan keyingi o'qishni davom ettirishga imkon beradigan ilmiy asosni ham kafolatlaydi. Zamonaviy ta'lim tendensiyalari ma'lum bir sohada mutaxassislar tayyorlash uchun yangi shart-sharoitlarni talab qiladi. Yangi bilimlarni yarata oladigan, shuningdek, ma'lum bir kasbiy sohadagi yangiliklarni moslashtira oladigan xodimlar mehnat bozorida talabga aylanadi. Bugungi kunda

raqobatbardosh ta'lim muhitini rivojlantirish mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa oliy o'quv yurtlarining rivojlanishini rag'batlantirishni, shuningdek, ular tomonidan yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni kafolatlaydi.

Bugungi kunda olib borilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlar doirasida ta'lim sohasini tartibga solish va boshqarishdagi davlat-huquqiy doktrinani barcha darajalarda qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud bo'lib, mamlakatda huquqiy davlatchilikni rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida davlat boshqaruvi amaliyotining yangi vazifalar o'rtasidagi tafovutini yuzaga keltirmoqda.

Davlatda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu ham ta'lim tizimiga, ham ushbu islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan mazkur sohaning qonunchilik bazasiga ta'sir qiladi. Tartibga solishning har qanday jihatiga ta'sir ko'rsatadigan qonunchilik bazasi davlat milliy siyosatining timsolidir.

Oliy ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tashkil etish asoslariga qiziqish ijtimoiy sohada olib borilayotgan doimiy islohot jarayonlari bilan bog'liq. Ta'limning sifat o'zgarishlari nafaqat oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish kamchiliklari va shartlarida, balki oliy ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomida ham namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, ta'lim tashkilotlariga davlat organlari tomonidan yer ajratishdan boshlab litsenziya va ruxsat berish, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarda ommaviy munosabatlarda ma'muriy huquqning mustaqil subyekti sifatida ishtirok etishini yaxshilashga zamin yaratadi.

Bugungi kunda biz tadqiq etayotgan sohaning ommaviy munosabatlarda ma'muriy

huquqning alohida subyekti sifatida ko'rilishi, davlat organlari bilan munosabatlarda tashkilot nomidan individ sifatida ishtirok etishida xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi amaliyotini o'rganganimizda, xorijiy davlatlarda ma'muriy huquq subyekti sifatida ishtirok etishida bir yoki ikkita qonun normalari bilan tartibga solinganini ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda esa bu borada OTTning ma'muriy-huquqiy jihatdan davlat bilan munosabatlarni tartibga soladigan 1991–2024-yillar davomida lex.uz milliy qonunchilik bazasini tahlil etish asnosida ta'lim sohasini tashkil etish va boshqarishga oid bo'lgan 1056 taga yaqin huquqiy hujjatlar mavjud ekanligi, huquqiy jihatdan tartibga solinishining o'zi ham to'liq byurokratik tizimni saqlab qolayotganini aks ettiradi.

Bu hujjatlarni klassifikatorga bo'lganimizda, ta'lim tizimini boshqarish 136 ta, ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish 10 ta, davlat ta'lim standartlari va talablari hamda ta'lim jarayoni 41 ta, davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari 59 ta, nodavlat ta'lim tashkilotlari 9 ta, xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari 6 ta, pedagoglarning va ta'lim tashkilotlari boshqa xodimlarining huquqiy maqomi 12 ta, ta'lim muassasalariga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash 22 ta, chet ellik fuqarolarni ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish 6 ta, fuqarolarni chet elga o'qishga yuborish 2 ta, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish 15 ta, ta'tillar 6 ta, amaliyot va stajirovka 8 ta, olimpiada-tanlovlar 5 ta, malaka oshirish-qayta tayyorlash 72 ta, ta'lim muassasalari haqida namunaviy nizomlar 13, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, moddiy texnika ta'minoti va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash 91, oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura) 325, oliy ta'limdan keyingi ta'lim (aspirantura, adyunktura, doktorantura va tadqiqotchilik) 25 ta, nodavlat ta'lim muassasalari (xususiy, jamoat birlashmalari, diniy va boshqa tash-

kilotlarning ta'lim muassasalari) faoliyatini litsenziyalash 22 ta, ta'lim to'g'risidagi hujjatlar 11 ta, davlat grantlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarning ta'lim olishi 13 ta, to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish 31 ta, talaba va o'quvchilarni moddiy-maishiy jihatdan ta'minlash 15 ta hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'quv qurollari ta'lim sohasiga oid 41 ta hujjat mavjud.

To'g'ri, qayd etilgan bu raqam ichidagi bir qator huquqiy hujjatlar o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa-da, sohaga oid normativ hujjatlarning bu darajada ko'pligi ta'lim sohasini tartibga solish va boshqarishda bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, amalda bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda sohani tartibga soluvchi vazirlik va tashkilotlarning nomi va funksiyalari ma'muriy islohotlar asosida qayta nomlangan hamda taqsimlangan bo'lsa-da, qonunda bular o'z ifodasini topmagan.

Ta'lim sohasini tartibga solish yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarning 39,1 foizi barcha oliy ta'lim sohasidagi hujjatlarni tizimli tahlil qilib, optimallashtirish va yagona hujjat shaklida ishlab chiqish orqali muammolarni bartaraf etish mumkinligini ko'rsatishgan.

Shu sababli tarqoq bo'lgan ta'lim sohasidagi huquqiy hujjatlarni optimallashtirib, bir butun ta'lim sohasini boshqarish va tashkil etishga qaratilgan yaxlit **Ta'lim kodeksini** ishlab chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining shakllanishi va rivojlanishini olim B. Qodirov (2019) shartli ravishda ikki bosqichga bo'lib, "birinchi bosqichda XX asr boshidan mustaqillik yillarigacha va ikkinchi bosqichni mustaqillik davridan 2019-yilgacha bo'lgan muddatda oliy ta'limni modernizatsiya qilish" masalalarini yoritgan. Bizning fikrimizcha, bu davrlashtirish hozirgi zamon talablariga to'g'ri kelmaydi, olim tomonidan birinchi davrda asosan mafkuraviy bo'ysunuvdagi oliy ta'limni boshqarish ko'rsatilgan.

Biz esa bu davrni shunchaki rivojlanish tarixi sifatida e'tirof etib, oldingi paragrafimizda mustaqillikkacha bo'lgan davrda oliy ta'lim tashkilotlari partiyaning mafkuraviy dastagi bo'lganini ko'rib chiqqan edik. Shu sababli biz qonunchilikning rivojlanish davrlarini shartli ravishda uchta bosqichga bo'lib, ularning har biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida mustahkamlangan "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" va 51-moddada o'z ifodasini topgan "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega" normalarini o'zida mujassam etgan qoida asosida ko'rib chiqamiz.

Asosiy qonunda qayd etilgan mazkur normalar ta'lim sohasidagi qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari uchun etalon bo'lishi hamda amaliyot ham shu asosda shakllanishi darkor.

Oliy ta'lim sohasini tashkil etish va boshqarishning birinchi bosqichini shartli ravishda 1991–1996-yillar etib belgilasak to'g'ri bo'ladi, bizning fikrimizcha. Sababi mustaqillikka erishgach rejali iqtisodiyotga asoslangan davlat qurilishida tizimni jiddiy qayta qurish zarurati paydo bo'ldi.

Birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 17-sentabrdagi PF-260-sonli farmoniga asosan mamlakat hududidagi barcha turdagi ta'lim tashkilotlari partiyadan xoli etilib, ularda partiya tuzilmalari tuzilishi qat'iy taqiqlanishi oliy ta'limning rivojlanishining o'ziga xos yo'nalishini belgilab berdi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 30-dekabrdagi "Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini, hunar texnika bilim yurtlarini, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini va sog'liqni saqlash obyektlarini O'zbekiston Respub-

likasi yurisdiksiyasiga o'tkazish haqida"gi 318-sonli qarori bilan ittifoq vazirliklari va idoralari tasarrufida bo'lgan ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda sog'liqni saqlash obyektlari respublika vazirliklari va idoralari tasarrufiga o'tkazildi.

Oliy ta'lim sohasini takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlashni yaxshilash, respublikaning barcha hududlarida oliy ta'lim tizimiga bo'lgan ehtiyojni bir tekisda ta'minlash maqsadida 1992-yil 28-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 356-son farmoni qabul qilinishi natijasida bir qator yangi OTT tashkil etildi.

Shundan so'ng 1991-yildan 1996-yilgacha oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasidan tortib bir qator OTT yangidan tashkil etilib, bu davrda 58 ta oliy o'quv yurti, shulardan 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat olib borgan.

"Ta'lim olish huquqi universal va mintaqaviy xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan inson huquqlaridan biridir" (Tursunova, 2022). Mazkur huquqni amalga oshirish uchun, masalan, bu davrda oliy ta'lim sohasini tashkil etish uchun mamlakat BMTning 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasidagi "...texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak" (UN, 1948) degan xalqaro prinsipga amal qilgan holda tashkil etishga va huquqiy hujjatlarni qabul qilishga harakat qildi.

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi ilk hujjatlardan biri 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (birinchi tahrirdagi) bo'lib, unda OTTni boshqarish va tashkil etish borasidagi normalar aks ettirildi.

Xususan, birinchi tahrirdagi qonunning 19-moddasida ta'lim tizimini boshqarish davlat-ijtimoiy xususiyatiga egadir, deb belgilangan edi, ya'ni davlat oliy ta'lim sohasini tartibga solishda aksariyat vakolatlarni ta'lim dargohiga berish nazarda tutilgan. Bu norma keyinchalik 1997-yildagi (eski tahrirdagi) va 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlarda aks ettirilmagan.

Shuningdek, 1992-yildagi birinchi tahrirdagi qonunda oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishda davlat hokimiyatining oliy va mahalliy idoralari tomonidan vakolat berilgan maxsus davlat idoralari belgilangan talablar va me'yorlar bajarilishini ta'minlashi, davlat tasarrufidagi ta'lim muassasalarini boshqarish huquqiy hujjatlar va OTTning Ustaviga muvofiq amalga oshirilishi, davlatga qarashli OTTni boshqarish professor-o'qituvchilar va jamoatchilik vakillari ishtirokida amalga oshirilishi, ta'lim masalalari bo'yicha hududiy kengashlar faoliyat ko'rsatishi, nodavlat ta'lim muassasalari Vazirlar Mahkamasidan ruxsat (litsenziya) olganlaridan keyingina ta'lim berish bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lishi, ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularni qaytadan tuzish va tugatish tartibini belgilash, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ta'lim muassasalari o'zaro bitim tuzishga, o'quv-tarbiya komplekslari va o'quv ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari (uyushmalari)ni tashkil etishga, hududiy o'quv-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishi belgilandi.

Bu qonun qabul qilingandan so'ng oliy ta'lim sohasiga daxldor bo'lgan DTSni ishlab chiqish va joriy etish, yangi usuldagi reyting va talabalikka qabul qilishga test tizimlari va sohani qonunchilik bilan nazorat qilish qoidalari ishlab chiqildi. Y.N. Paramonova va A.A. Galushkinning (2013) fikricha, "ta'lim sohasidagi nazorat nazorat olib boruvchi ijro etuvchi hokimiyat vakolatli organlarining faoliyati turi bo'lib, ular ta'lim muassasalari

va tashkilotlari o'z faoliyatida qonun hujjatlari va ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlariga, shu jumladan, qisman davlat ta'lim standartlari, bitiruvchilarni tayyorlash sifati va litsenziyalashning talab va shartlariga rioya etishi ustidan kuzatuv olib boradi hamda baholaydi" deb ta'kidlagan. Bu davrda ta'lim sohasidagi alohida davlat nazorati huquqiy hujjatlar bilan tashkil etish uchun zamin yaratdi.

Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 283-son qarori bilan OTT professor-o'qituvchilarining oylik ish haqlari, bir pedagog uchun to'g'ri keladigan talabalar soni, o'quv soatlari hamda abituriyentlar bilimining test tizimi va reyting asosida baholash joriy etildi. 1992–1993-yillarda mamlakat oliy o'quv yurtlariga qabul test natijalari asosida eksperimental ravishda qo'llanib, talabalarni shartnoma asosida test sinovlari natijalariga ko'ra qabul qilish bo'yicha vazifalar belgilab berildi, natijada oliy ta'lim tashkilotlariga talabalikka qabul qilishda abituriyentlarni test usulida tanlash sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash maqsadida va bugungi kunda amaliyotda mavjud bo'lgan OTT kirish imtihonlarini qabul qiladigan test markazini tashkil etish haqidagi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-maydagi 258-sonli qarori qabul qilindi.

Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, tegishli huquqiy hujjatlariga amal qilayotganini o'rganish uchun OTTni attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish, davlat ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi hamda davlat ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 12-avgustdagi 406-sonli qarori qabul qilinib, ta'lim to'g'risidagi normativ hujjatlar tizimlashtirildi.

Oliy ta'lim sohasini tashkil etishga oid yuqorida qayd etilgan normalardan asosiy maq-

sad oliy ta'lim sifatini oshirish, OTT xodimlarining ilmiy-pedagogik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish hisoblangan. Shu maqsadni ta'minlash uchun O'zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 20-iyuldagi 334-sonli qarori qabul qilinib, o'tish davrida tarmoqlarni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, fan va ta'lim sohaslarida o'zaro munosabatlarni rag'batlantirish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga zamin yaratildi.

A.I. Rakitovning (2018) fikri bilan aytganda, "fan va oliy ta'lim iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim manba" bo'lib xizmat qildi.

Birinchi bosqichda davlat oliy ta'limni tartibga solish ehtiyojlarini eng kichik tafsilotlarigacha, balki o'qitish shakllari, usullari va siyosatini ham belgilab berdi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga asos bo'lgan asosiy tamoyillar 1992-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida qayd etilgan edi. Bizning fikrimizcha, yuqorida tahlil qilingan birinchi bosqichdagi qonunchilik normalarining bir qator yutuqli jihatlari keyinchalik 1997-yildagi eski tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan quyidagi o'zgarishlarga duch kelgan deb xulosa qilish mumkin:

- davlat ta'lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi haqida gap ketganda, bu yerda ta'limning dunyoviylik tabiati bilan yuqori ma'lumotli kadrlarni tayyorlashi kerak bo'lgan davlat ta'lim tizimining ilmiy yo'nalishini normativ jihatdan birlashtirishni ta'kidlash muhimdir, keyinchalik ilmiylik masalasi normativ bazadan chiqarib tashlandi va bu ta'lim rivojlanishining barcha bosqichlarining salbiy o'zgarishiga olib keldi;

- ta'lim, ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv turli ijtimoiy guruhlar, sinflar uchun ularning qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli o'quv sharoitlari yaratilishini nazarda tutar edi;

- ta'limni ijtimoiy boshqarishning olib tashlanishi OTTning mustaqilligiga putur yetkazib, davlat va u vakolat bergan organlar tomonidan umumiy rahbarlik bilan mutlaq boshqaruvni tashkil etishga olib keldi.

Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarish va tashkil etish borasidagi qonunchilik rivojlanishining ikkinchi bosqichini 1997–2017-yillar deb qayd etamiz. Birinchi bosqichda qonunchilik rivojlanishi uchun tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, bu davrning asosiy jihati huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishi va ta'lim sohasining o'zgacha rivojlanish bosqichi bo'ldi.

Oliy ta'lim sohasini tashkil etish va boshqarishda normativ hujjatlar alohida ahamiyatga ega. I. Jo'rayevning ta'biri bilan aytganda, "Har qanday mamlakatning ta'lim tizimidagi sifat ikki jihatga ega: tartibga solish va bozor munosabatlari jarayonidagi ta'lim. Me'yoriy sifat iste'molchilarning ta'limga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini belgilaydigan ta'lim xizmatlari xususiyatlarining rasmiy to'plamidir" (Djurayev, 2021).

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning (1998) Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan "Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarga qaramay, bir qator kamchiliklar saqlanib qoldi: umuman ta'lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarga, shuningdek, bozor islohotlari talablariga javob bermadi; tizim, fan va ishlab chiqarish o'rtasida yaxlit mexanizm o'rnatilmadi; bugungi oliy ta'lim olish tizimining zaif tomonlaridan biri oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan talabalarni oldindan aniqlangan fan va texnika, iqtisodiyot, umuman olganda, hayot talablariga bog'lamaganmiz; oliy ta'lim sohasida xalqaro talablar va andozalar asosida DTSni ishlab chiqmaganmiz; bugun oliy o'quv yurtlarining diplom bilan hayotga kirayotganlarning ishini tashkil qilish, ma'muriy sohalarda marketing va menejment boshqaruv tomonlari alohida e'tibor talab qiladi" nutqi oliy ta'lim sohasidagi ikkinchi bosqichni boshlab berdi

hamda tub o'zgarishlarning boshlang'ich nuqtasi 1997-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi bilan boshlandi. Bu esa ta'lim tizimini tarkibiy qayta qurish va uning yangilanishiga olib keldi, birinchi navbatda esa milliy ta'lim siyosatiga asos bo'lgan tamoyillar o'zgartirildi.

Avvalo "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning (1997-y.) 25-moddasida ta'lim tizimini boshqarish sohasidagi yagona siyosatni Vazirlar Mahkamasi olib borishi belgilandi. Avvalgi tahrirdagi qonunda (1992-y.) yagona davlat siyosatini qaysi organ olib borishi belgilanmagan edi (Boqiyev, 2024). Shuningdek, Vazirlar Mahkamasiga ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan va attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash kabi vakolatlar berildi.

Shu bilan birga, qonunning 26-moddasida ta'limni boshqarishdagi vakolatli organlar tomonidan ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va umumiy rahbarlik qilish, 27-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududlaridagi OTTni moliyalash miqdor va imtiyozlarini belgilash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash kabi tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos yangi jihatlari belgilandi.

Binobarin, oliy ta'lim har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, qonunchilik bazasi muayyan normalarni joriy etish yoki bekor qilish natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni hisobga olgan holda hozirgi tendensiyalar asosida shakllantirilishi kerak (Elmurodov, 2023).

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi, u qonunga muvofiq oliy ta'lim sohasida tashkil etish va boshqarishni isloh qilishning va ushbu islohotlarni bir necha bosqichda amalga oshirishni o'z ichiga oldi:

1. 1997–2001-yillarda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish lozim edi. Ta'kidlash joizki, ushbu bosqichda ta'lim va kadrlar tayyorlashga budjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat OTT bilan bir qatorda nodavlat OTTni rivojlantirishni o'z ichiga olgan raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish, ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bazasi tayyorlandi, shuning uchun ushbu bosqichda "Ta'lim to'g'risida"gi (1997-y.) Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmuni tubdan yangilandi. Ya'ni ushbu bosqich kelajakda dasturda belgilangan islohotlarni amalga oshirishga tayyorgarlik bo'ldi.

2. 2001–2017-yillarda asosiy e'tibor "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni bajarishga qaratildi. Bu bosqichda OTTning moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, elita oliy ta'lim tashkilotlarini qaror toptirish va rivojlantirish mustaqil faoliyat yuritishi, o'zini o'zi boshqarishi shakllarini mustahkamlash va natijada ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlarini to'liq ishga solish maqsad qilindi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator, ya'ni ikki bosqichli fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat va magistratura oliy ta'limi, talabalarni qabul qilish davlat grantlari va pulli-shartnomaviy asosda amalga oshirilishi, oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylik kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish bo'yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi (Sharpe, 2013).

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi

4-son qarori bilan yangi turdagi o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish hamda shu dasturlar asosida ta'lim olgan mutaxassislarni boshqaruv sohasiga tayyorlash uchun zamin yaratildi.

Ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini shakllantirishni hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 28-yanvardagi 48-son qarori bilan davlat ta'lim grantlari davlat buyurtmasi asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun davlat va nodavlat OTTga har yili ajratilishi shuningdek, davlat grantlarni olish uchun tanlov o'tkazish tartibi va marketing xizmatlarini yo'lga qo'yish amalga oshirildi (Xojayev, 2021).

Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishga munosib nomzodlarni tanlash, ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayoni va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish ishlari holatini baholash uchun oliy o'quv yurtlari rektorlarini davlat attestatsiyasidan o'tkazish haqida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-avgustdagi 325-sonli qarori qabul qilinib, rektorlarning o'zi rahbarlik qilayotgan oliy ta'lim muassasida ta'limni tashkil etishda ularning o'rni va boshqa holatlarni xolisona baholash maqsadida o'tkazilishi belgilandi.

Islahotlarning davomi sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun 2001-yil 26-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 318-sonli qaroriga binoan, 2001/2002 o'quv yilidan boshlab to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlari berish amaliyoti ham joriy etildi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini belgilab beradigan hujjatlardan biri – Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat ta'lim standartlari toifalari; oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tartibga soluvchi norma-

tiv-huquqiy hujjatlar hamda mexanizmini belgiladi. Shuningdek, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori tasdiqlandi hamda bu vaqtga kelib OTTda ta'lim 131 ta yo'nalish bo'yicha bakalavr va 664 ta mutaxassislik bo'yicha magistr darajasida olib borilishi yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, 1997-yildagi eski tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislarni universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalari ko'rinishidagi kamida to'rt yillik bakalavriat va ikki yillik magistratura bosqichida tayyorlashi nazarda tutilgan edi. Mazkur normani aniqlashtirish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 22-fevralda 1222-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Oliy ta'lim vazirining 2003-yil 9-yanvardagi 9-sonli buyrug'i asosida nizom qabul qilinib, unda oliy ta'limning maqsadi va vazifalarini, oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarish tartibi, uni moliyalashtirish va mol-mulkleri, faoliyat yurituvchi xodimlarning maqomi, vazirlik hamda idoralar bilan o'zaro aloqasi va boshqa masalalarga yechim berildi.

Bugungi kunda ham amalda bo'lgan mazkur buyruq bir necha marotaba o'zgarishlar kiritilishiga qaramasdan hozirgi voqelikni aks ettirmasligi, jahon tajribasiga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlari moliyaviy va akademik jihatdan mustaqil ekanligi, shuningdek, sohaga mas'ul vazirlik oliy ta'limni boshqarish yoki tashkil etishi emas, faqatgina faoliyatni muvofiqlashtirib turishini nazarda tutadi (Salmi, 2001). Shu sababli mazkur nizomni qayta ishlash va biz yuqorida taklif bergan ta'lim kodeksini ishlab chiqish orqali uning ichiga alohida bob sifatida kiritish lozim bo'ladi.

Ushbu nizom qabul qilinishi natijasida oliy ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilishiga va O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning OTTlari ochilishiga zamin yaratildi. Jumladan, Toshkent shahridagi Britaniya xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti,

Turin politexnika universiteti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi kabi oliy o'quv yurtlari ochilib, jahon hamjamiyatida "ta'limning o'zbek modeli" sifatida e'tirof etildi (Ulrich, 1985).

Oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini tartibga solishda birinchi navbatda uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va shundan keyin natija kutish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi-ning 2009-yil 20-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy jihatdan yanada mustahkamlash choralari to'g'risida"gi 237-son qarori qabul qilindi.

Unga asosan, OTTning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlash, budjetdan tashqari mablag'larini oliy o'quv yurtlarini modernizatsiya qilish uchun qoldirish va ko'paytirish nazarda tutilib, bu mablag'larning oqilona sarflanishini nazorat qilish Nazorat-taftish bosh boshqarmasiga yuklatildi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim sohasida xorijiy mamlakatlarning ham grantlarini jalb qilish va shu orqali talabalar almashinuv tizimini joriy etish, talabalarni xorijga yuborish ishlari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi 1533-sonli qarori bilan 2011–2016-yillarda OTTning moddiy bazasini yaxshilash va malakali kadrlarni tayyorlash belgilandi.

Umuman, biz tadqiq etayotgan bu bosqichda oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarish sohasida bir qator normativ hujjatlar qabul qilinib, nodavlat OTT tashkil etishga, o'zini o'zi boshqarishning dastlabki ko'rinishi, OTTni moliyalashtirishda grant mablag'laridan ham foydalanish uchun zamin yaratildi.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini boshqarish va tashkil etish borasidagi qonunchilik rivojlanishining uchinchi bosqichini 2017-yildan hozirgi vaqtgacha deb qayd etamiz. Ikkinchi bosqich huquqiy hujjatlarining takomillashtirilishi va ta'lim sohasining

o'zgacha rivojlanish bosqichi bo'lgan bo'lsa, uchinchi bosqich kredit-modul tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, muvofiq-lashtirish, litsenziyalash, akademik va moliyaviy mustaqillikni taqdim etish, oliy ta'lim sohasini jahon andozalariga javob beradigan darajaga olib chiqish, oliy ta'lim tashkilotlari transformatsiyasini boshlash davri bo'lib, bu bosqich kundan kunga yangi sifat darajasiga ko'tarilmoqda.

Mazkur bosqichda oliy ta'lim sohasining rivojlanish harakatini va taraqqiyotini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni bilan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmoni va shu asosda qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

Jumladan, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.4-bandida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish masalalari ko'rsatildi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori bilan oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, har bir OTT turdosh xalqaro oliy o'quv yurtlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yishi uchun Oliy ta'lim tizimini 2017–2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Mazkur dasturga asosan, qayd etilgan

davrdagi qabul parametrlarini 18 foizgacha oshirish, 350 nafardan ortiq xorijlik olimlarni o'quv jarayonlariga jalb etish, mehnatiga haq to'lashda xodimlarning kasb mahoratini inobatga olib ustama haq to'lash soliq imtiyozlarini taqdim etish orqali barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir (Karsten, 2008).

Uchinchi bosqichda yoshlarning oliy ta'lim bo'yicha qamrovini kengaytirish maqsadida nodavlat OTTni tashkil etish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga ahamiyat berildi. Xususan, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqni ro'yobga chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-son qarori qabul qilinib, unga asosan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxslarga mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatishni litsenziya asosida amalga oshirish tartibi joriy etildi.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi 241-son qarori bilan nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash dastlab Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga bugungi kunda esa VMning 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori hamda Adliya vazirining 2023-yil 27-oktabrdagi 3467-son bilan ro'yxatdan o'tgan buyrug'iga asosan belgilangan tartibga ko'ra Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va professional ta'lim xizmatlari) olib boradi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan

va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son qarori bilan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi belgilandi (mazkur qaror bekor qilingan).

Bunga asosan, attestatsiya va akkreditatsiya oliy ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanib, tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligidan iborat. Bu ma'muriy-huquqiy munosabatda oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida har besh yilda bir marotaba ishtirok etadi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan sertifikat beriladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini islohotlarga chambarchas tarzda olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga asosan ba'zi ta'lim yo'nalishlari uchun uch yil bo'lgan bakalavriat va kamida bir yillik magistratura tizimi tashkil etildi hamda qabul kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni test sinovlarisiz qabul qilish joriy etildi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, tizimni tubdan isloh qilish va sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning asosiy yo'nalishlari etib sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sohada davlat ta'lim standartlariga muvofiqlikni ta'minlash, ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etish orqali tijoratlashtirish belgilandi.

Mazkur farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida davlat rahbarining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son qarori bilan Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim vazirligi boshqaruvida o'zgarishlar

ham amalga oshirildi. Bundan tashqari, qarorga asosan, OTT rektorlari tegishli tarkibiy bo'limlarni o'zi bo'ysunuvchi vazirlik bilan kelishib tasdiqlashi, rektorlar tegishli vazir tavsiyasi bilan Prezident Administratsiyasi bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan, prorektorlar esa rektor tavsiyasi bilan idora rahbarlari tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi, boshqa barcha rahbarlar esa shaxsan rektor tomonidan tayinlanishi kabi qoidalar belgilandi.

Oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim sifatini, oliy ta'lim tashkilotlaridagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining davlat bilan o'zaro aloqasini qayta ko'rib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr kungi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon bilan oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangi qoidalarini o'z ichiga oladigan yangi qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish belgilandi.

Konsepsiya doirasida yangi davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish bilan oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, kamida 10 ta, shundan O'zbekiston milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini dunyodagi top universitetlarning birinchi 500 taligiga kiritish, o'quv jarayonini kredit modul tizimiga o'tkazish, akademik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida pulli xizmatlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda o'z ishlanmalarini startap loyihalari asosida tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini dunyo miqyosiga olib chiqish belgilandi.

Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda to'lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash,

oliy ta'lim tuzilmasini isloh qilish asosida "Karyera markazlari"ni tashkil etish; o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish; davlatga qarashli OTTning 51 foizini saqlab qolgan holda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali korporativ boshqaruv joriy etish; oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish asosida optimallashtirish va davlat interaktiv xizmatlari ko'lamini kengaytirish; vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish va OTT reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish qayd etildi.

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator hujjatlar qabul qilindi:

- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-dekabrda "Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1037-son qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-son Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 60-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-son qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyulda "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma

ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 421-sonli qarori va boshqa hujjatlar shular jumlasidan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, biz tahlil qilayotgan 3 bosqichning dastlabki yillarida ham 1997-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" amalda qo'llandi. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlar jahon standartlariga nisbatan ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga to'liq javob bermas edi. Shu sababli 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirdi, shuningdek, ilgari farmon va qarorlar bilan tartibga solingan islohotlarni o'z ichiga oldi.

Mamlakatning oliy ta'lim sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Masalan, bakalavr asosida o'qishning minimal davomiyligi uch yilga (ilgari to'rt), magistr darajasi uchun bir yilga (ilgari ikki) teng bo'lgan muddat bo'lishi belgilandi. Bundan tashqari, eski tahrirdagi qonunda bakalavriyat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan bosqich hisoblangan bo'lsa, yangi tahrirdagi qonunda bakalavriyat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan ta'lim sifatida talqin etildi. Ko'rib turganimizdek, puxta bilimlarni shakllantirish chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan ta'lim bilan almashtirildi.

Mazkur qonun bilan oliy ta'lim tashkilotlari atamasi ham joriy etildi hamda ta'lim tashkilotlari reytingi, ta'lim tizimidagi monitoring va ta'lim sohasidagi davlat nazorati joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida "Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud

muammolarni bartaraf etish, oliygohlarimizni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha boshlagan katta ishlari-mizni jadal davom ettirishimiz lozim" (Mirziyoyev, 2020), – deya qayd etildi. Oliy ta'lim sohasida hozirgi kunda ham davom etayotgan islohotlarning yana bir asosi bo'lgan huquqiy hujjat yuqorida qayd etganimizdek, 2022-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli farmoni bo'lib, farmonning 46–50-maqсадlari oliy ta'lim tashkilotlarining bevosita faoliyatiga daxldor bo'lib, qabul parametrlarini 2026-yilga qadar 250 mingga yetkazish, davlat OTT tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash, talabalarni yotoqxona bilan ta'minlashni 60 foizdan oshirish, hududlarda nodavlat OTT sonini oshirish va boshqa masalalar qayd etilgan.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan davlat OTT masofaviy ta'lim shakli, magistraturaga qabul qilishda bakalavriyat diplom balli va til sertifikatini inobatga olish va imtihon o'tkazilmasligi, davlat granti bo'yicha davlat buyurtmachisi vazirlik bo'lishi, imtiyozga ega bo'lganlar qabul parametrlaridan alohida belgilanishi va boshqalar joriy etildi.

Oliy ta'lim sohasidagi ma'muriy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni alohida ahamiyatga ega. Sababi mazkur farmon bilan davlat boshqaruvi xususan, oliy ta'lim sohasiga daxldor bo'lgan va boshqaruvini amalga oshiruvchi 3 ta (Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Innovatsion rivojlanish vazirliklari hamda Davlat test markazi) idora 1 ta vazirlik, ya'ni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sifatida qayta tashkil etildi. Bu bilan oliy ta'lim tashkilotlari hamda davlat boshqa-

ruv organi o'rtasidagi munosabatlar ma'lum ma'noda optimallashtirildi.

Xulosa

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining vazifa va vakolatlari hamda tashkiliy tuzilmasini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, qarorda oliy ta'lim dasturlarini Top-200 dagi OTTning dasturi asosida ko'rib chiqish, OTTni attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bekor qilinib, har 4 yil-da tashqi baholash natijasi asosida kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish, maxsus davlat akkreditatsiyasini esa kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkazish, ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish amaliyoti, davlat va nodavlat OTTning umumiy reytingini yuritish qoidolari o'z aksini topdi.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini

qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat rahbarining 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 54-son qarori bilan "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi tashkil etilib, 2024–2025-yillarda kamida 10 ta OTT faoliyatiga zamonaviy boshqaruv usullari va yuqori standartlarni joriy qilish hamda boshqalar ustuvor vazifa etib belgilandi.

Biz ko'rib chiqqan 3 bosqichda davlat va nodavlat OTT o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, moliyaviy barqarorlik hamda akademik mustaqillik imkoniyatlari taqdim etilishi, litsenziyalash tizimlashtirilishi, davlat tomonidan oliy ta'lim boshqaruvini yagona idora ostida birlashtirish jarayonlari bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Prezident va Hukumatning sohaga oid qarorlaridagi vazirlik va idora nomlari hamda funksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda 269-sonli farmoniga asosan qayta ko'rib chiqish va moslashtirish, oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish hozirgi davr talabi bo'lib, u orqali yangi natijalarga erishiladi.

REFERENCES

1. Boqiyev, J. N. (2024). *O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish oliy ta'lim misolida* [Improving the organizational and legal foundations of education in the conditions of digitization in Uzbekistan is an example of higher education] (p. 48). Tashkent.
2. Djurayev, I. B. (2021). *Oliy ta'lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish* [Improvement of the prosecutor's control over the implementation of legislation in higher education institutions] (p. 43). Tashkent.
3. Elmurodov, E. Sh. (2023). *O'zbekistonning oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatida Yaponiya tajribasini qo'llash yo'llari* [Ways of applying the Japanese experience in Uzbekistan's state policy in the field of higher education] (p. 25). Tashknet.
4. Karimov, I. A. (1998). *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori* [A healthy generation is the foundation of Uzbekistan's development] (pp. 10–11). Tashkent: Sharq Publ.

5. Karsten, M. (2008). Rethinking governmental licensing of higher education institutions. A Bibliometric Review based on Scopus. *European Journal of Law and Economics*, 25, 57–78. <https://doi.org/10.1007/s10657-007-9036-4>
6. Xojayev, A. S. (2021). Oliy ta'lim muassasalarini tadbirkorlik faoliyati – budjetdan tashqari mablag'larning muhim asosi sifatida [Entrepreneurial activity of higher education institutions as an important basis of extra-budgetary funds]. *Economy and Education*, 16, 205–206.
7. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). 1-oktabr o'qituvchi va murabbiylar kuniga bayram tabrigi [Congratulations on October 1, Teachers' and Mentors' Day]. <https://uza.uz/ru/posts/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-30-09-2020>
8. Paramonova, Y. N. & Galushkin, A. A. (2013). Nadzor v sfere obrazovaniya [Supervision in the field of education]. *History, Philosophy, Economics and Law*, 1. <http://xn--h1aoo0b.xn--p1ai/1-2013/11.pdf>
9. Qodirov, B. B. (2019). O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal basis of personnel training in the higher education system in the Republic of Uzbekistan] (pp. 23–28). Tashkent.
10. Rakitov, A.I. (2018). Sovremennyye nauka i vysshche obrazovanie v sisteme gosudarstvennoy politiki i upravleniya. Nadzor v sfere obrazovaniya [Modern Science and Higher Education in the System of Public Policy and Administration. Supervision in the Sphere of Education]. *History, Philosophy, Economics and Law*, 4, 5. Moscow.
11. Sharpe, M. E. (2013). USA Education system. *International education an encyclopedia of contemporary issues and systems* (p. 747). New York.
12. Salmi, J. (2001). Tertiary education in the 21st century. Challenges and opportunities. *Journal of the Programme on Institutional Management in Higher Education*, 13(2), 105–125.
13. Tursunova, M. U. (2022). Xalqaro huquqiy standartlar negizida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal foundations of the education system of the Republic of Uzbekistan on the basis of international legal standards] (p. 12). Tashkent.
14. UN. (1948, December). Universal Declaration of Human Rights (p. 5). New-York. https://ntjwg.uwazi.io/en/entity/pjf74qvbbee?gad_source=1&gad_campaignid=20825787022&gbraid=0AAAAAo5JjMhYMMoYTTlocqtOPLjbCodCS&gclid=Cj0KCQiAoZDJBhC0ARIsAERP-F-DcK5P8QEqLPhEr2jgmAyBwnclTmk4odZLISWFJxD6egeDQz5v5jcaAmNnEALw_wcB&page=1
15. Ulrich, K. (1985). Organization and procedures for funding higher education in the Federal Republic of Germany. *Higher Education in Europe*, 10(1), 114–123. <https://doi.org/10.1080/0379772850100117>

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 24.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/RIYH6472

UDC: (342.9+336.025):336.14(045)(575.1)

“BUDJET JARAYONI” TUSHUNCHASI, UNING XUSUSIYATLARI VA BOSQICHLARI

Samigdjanov Fazliddin Rafkatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0002-0622-4529

e-mail: f.samigjonov@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada “budjet jarayoni” tushunchasi, uning mohiyati, xususiyatlari va bosqichlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Budjet jarayoni davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida markaziy o'rin tutishi, davlat resurslarini samarali taqsimlash va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlari sifatida uning qonuniyligi, rejalashtirilganligi, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada budjet jarayonining asosiy bosqichlari – budjet rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish, shuningdek, budjetni tasdiqlash va konsolidatsiyalashgan budjetni shakllantirish jarayonlari batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, davlat boshqaruv organlarining budjet jarayonidagi roli va funksiyalari tahlil qilinadi. Maqola nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham budjet jarayonini tushunishga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: budjet, budjet jarayoni, daromad, davlat budjeti, budjet bosqichlari, budjetni tasdiqlash, konsolidatsiyalashgan budjet, davlat boshqaruv organlari

ПОНЯТИЕ БЮДЖЕТНОГО ПРОЦЕССА, ЕГО ОСОБЕННОСТИ И ЭТАПЫ

Самигджанов Фазлиддин Рафкатович,

доктор философии (PhD) по юридическим наукам,

старший преподаватель кафедры

«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье системно анализируются понятие «бюджетный процесс», его сущность, особенности и основные этапы. Подчеркивается, что бюджетный процесс занимает центральное место в системе государственного финансового управления и играет важную роль в эффективном распределении государственных ресурсов и удовлетворении социально-экономических потребностей общества. К числу особенностей данного процесса отнесены его законность, плановость, системность и поэтапный характер осуществления. В статье подробно раскрываются ключевые стадии бюджетного процесса – бюджетное планирование, исполнение и контроль, а также процедуры утверждения бюджета и формирования консолидированного бюджета. Наряду с этим анализируются роль и функции органов государственного управления в бюджетном процессе. Изложенное в статье

способствует пониманию бюджетного процесса как с теоретической, так и с практической точки зрения.

Ключевые слова: бюджет, бюджетный процесс, доходы, государственный бюджет, этапы бюджетного процесса, утверждение бюджета, консолидированный бюджет, органы государственного управления

THE CONCEPT OF THE BUDGET PROCESS, ITS CHARACTERISTICS AND STAGES

Samidjanov Fazliddin Rafkatovich,
Senior Lecturer at the Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article systematically analyzes the concept of the "budget process," its essence, features, and stages. It is emphasized that the budget process occupies a central place in the system of state financial management and plays an important role in the effective distribution of state resources and the satisfaction of the socio-economic needs of society. The features of this process are its legality, planning, systematic and phased implementation. The article details the main stages of the budget process – budget planning, execution, and control, as well as the processes of budget approval and consolidated budget formation. At the same time, the role and functions of government bodies in the budget process are analyzed. The article helps to understand the budget process not only theoretically, but also practically.

Keywords: budget, budget process, revenue, state budget, budgeting stages, budget approval, consolidated budget, public administration bodies

Kirish

Budjet jarayonining mohiyatini anglash uchun, birinchi navbatda, "jarayon" va "yuridik jarayon" kabi tushunchalarga, shuningdek, o'zaro bog'liq bo'lgan boshqa atamalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ushbu tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali davlatning budjet jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydigan qonun hujjatlari yaratiladi.

Aytish lozimki, "jarayon" va "yuridik jarayon" tushunchalarining yagona ta'rifi yo'q. Ya'ni "jarayon" va "yuridik jarayon" tushunchalarining aniq, umumiy qabul qilingan huquqiy ta'rifi yo'q. Natijada esa ilmiy muammo kelib chiqadi. Bu esa budjet jarayonining huquqiy tabiatini izohlashni murakkablashtiradi.

"Jarayon" atamasi (lotincha "processus" – o'sish, taraqqiyot) uzluksiz birlashgan harakatni ifodalovchi rivojlanish bosqichlarining o'zaro aloqadorligini, tabiiy ravishda bir-birini taqozo qiladigan vaziyatlarning ketma-ket

o'zgarishini anglatadi (Lekhina & Petrova, 1952).

N.G. Salishcheva (1963) "jarayon" atamasi-ni faqat yuridik vaziyatlarda nizolarni hal qilish tartibi sifatida tushunadi, ya'ni jarayonni huquqiy nizoga baho berish faoliyati sifatida baholaydi. Ya'ni unda rasmiy bo'ysunish munosabatlarida o'zaro kelib chiqadigan nizolar qonun bilan tartibga solinadi, shuningdek, ma'muriy majburlash choralarini qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

V.A. Loriyaning fikriga ko'ra, jarayon nafaqat sud va suddan tashqari huquqiy nizolar va uning ishtirokchilari tomonidan hal qilinish holati, balki barcha davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlari, muassasalari, korxonalari va ayrim maxsus vakolatli ijtimoiy tashkilotlarda davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan alohida ishlarni ko'rib chiqishdir (Loria, 1974).

A. Lining nuqtayi nazarida "jarayon" atamasi ma'lum bir natijaga erishish uchun amalga

oshiriladigan ketma-ket harakatlar majmuini yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish tartibini anglatadi. Protsessual tartibga solishning huquqiy tabiati muayyan huquq sohasi predmetining mazmuni bilan belgilanadigan tartib-taomillarda munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan xulq-atvorni nazarda tutadi. Shu ma'noda ular ma'muriy, jinoiy va fuqarolik ishlari shaklida tasniflanadi (Li, 2008).

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida yuridik jarayonning quyidagi belgilari ko'rsatiladi:

- har qanday yuridik jarayon bosqichlardan iborat bo'ladi (Malko, 1995);
- unda huquqiy ta'sir qilish davrlari yoki protsessual ish yuritish tartibi mavjud;
- davlat-hokimiyati subyekti ishtirok etishi majburiy (Sorokin, 1972);
- jarayon dinamik tabiatga ega, ya'ni bu har doim o'z vaqtida qaytalanadigan faoliyatdir;
- yuridik jarayon huquqiy tabiatga va samaradorlikka ega;
- yuridik jarayon izchillikka ega, huquqiy tartibga solinadi, aloqadorlik, maqsadga muvofiqlik xususiyatlariga ega (Gorshenev, 1985);
- yuridik jarayon faqat “boshqaning manfaati”ga xizmat qiladi, shuning uchun uning ishtirokchilari liderlarga va bevosita manfaatdorlarga bo'linadi (Gorshenev, 1985).

Budjet jarayoni yuridik jarayonning barcha belgilarini o'zida qamrab oladi, lekin o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham mavjud. Xususan, jarayon ishtirokchilarining maxsus obyekti va subyektlari tarkibi, budjet huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradigan maxsus yuridik faktlar, bosqichlarga bo'linish va hokazolar.

M.V. Karasevaning (2003) fikriga ko'ra, budjet jarayoni – noyob hodisa, chunki u yagona qonun – kelgusi moliyaviy yil uchun budjet qonunini shakllantirish va ijro etishga xizmat qiladigan yagona yuridik jarayon. Bundan tashqari, bunday qonun barqaror emas, chunki u har safar faqat bitta kalendar yil

uchun amal qiladi. Budjet jarayoni, ma'lum bir qonunga xizmat qiladigan boshqa protsessual shakllardan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida har yili paydo bo'ladigan budjet qonunining (qarorining) shakllanishi va bajarilishini ta'minlaydigan o'ziga xos protsessual shakldir. Shu ma'noda budjet jarayoni – budjet to'g'risidagi qonunning (qarorining) yagona protsessual shakli (Tsvetova, 2015) deyish mumkin.

Ushbu muallifning fikrlari hech kimda shubha-gumonni uyg'otmaydi, darhaqiqat, budjet jarayoni boshqa turdagi jarayonlardan farq qiladi. Na jinoyat, na fuqarolik protsessi biron-bir normativ hujjatlarning qabul qilinishi va bajarilishini ta'minlamaydi, faqat jinoyat ishlarini tergov qilish va sudga ko'rib chiqish, shuningdek, sud qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va ijro etishga qaratiladi. Ma'muriy jarayon jinoiy va fuqarolik jarayonlariga nisbatan kam rivojlangan va uning turli talqinlari mavjud. Biroq ma'muriy jarayon ham, jinoiy va fuqarolik jarayonlari ham budjet jarayonidan tubdan farq qiladi, chunki ularning hech biri yagona qonunni (qarorni) qabul qilish va ijro etishning protsessual shakli bo'la olmaydi.

Budjet jarayoni davlatning budjet faoliyati asosini tashkil etadi, bunda davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarining budjet daromadlarini shakllantirish (budjetni rejalashtirish va hisoblash), xarajatlar majburiyatlarini belgilash, budjet xarajatlarini rejalashtirish va amalga oshirish, budjetni moliyalashtirish manbalaridan daromadlarni ta'minlash, kamomadni, davlat va munitsipal qarzlarni to'lash, budjet nazoratini amalga oshirish harakatlarini amalga oshiradi (Kovaleva, 2007).

O'zbekiston Respublikasi budjeti jarayoni-da iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Budjet jarayoni mamlakatimiz budjet siyosatining ajralmas qismi bo'lib, uning samaradorligi budjet jarayonini huquqiy tartibga solish darajasi bilan belgilanadi. Budjet jarayonining

mazmuni mamlakatning davlat tuzilishi va uning budget tizimi, tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining budget vakolatlari bilan aniqlanadi.

Budget jarayonining mohiyati masalasi katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega, shuning uchun doim turli ilmiy hamjamiyatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy va yuridik fan vakillarining diqqat markazida turadi.

Ba'zi iqtisodiy ilmiy adabiyotlarda budget jarayoni shunday ta'riflanadiki, u budgetni shakllantirish va ijro etishning ketma-ket bosqichlari to'plamini, uni ishlab chiqish paytidan boshlab ijro hisoboti tasdiqlanganiga qadar davlat va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini ta'minlash, undan samarali foydalanish uchun markazlashtirilgan kassa fondini (davlat yoki shahar budgeti) yaratish maqsadiga bo'ysunadi (Yusupov, 2021).

AQSh iqtisodchi olimi William Mark Crain fikriga ko'ra, davlat budgeti daromadlarni to'plash va olingan mazkur daromadlarni sarflash bo'yicha rasmiy kelishuv hisoblanadi. Ko'pgina siyosiy tizimlarda "budget" soliq qonunchiligini hamda muayyan dastur uchun xarajatlar darajasini belgilovchi siyosiy kelishuvlar jamlanmasi hisoblanadi. Shu sababli uning fikriga ko'ra, budget jarayoni – siyosatchilar tomonidan mazkur daromadlar va xarajatlar kelishuvini tuzish, qabul qilish va ijro etilishida foydalaniladigan tartib va jarayonlar majmuasidan iborat. Boshqa bir AQShlik olim Robb Shawe (2023) fikriga ko'ra, tashkilotchi menejerlar va siyosatchilar budgetdan hisobdorlik va qarorlar qabul qilish uchun foydalanadi. Unga ko'ra, budget jarayoni ma'lum bir subyekt yoki strategik reja maqsadlarida resurslarni taqsimlashni o'z ichiga olgan jarayon hisoblanadi.

Yirik iqtisodchi olim, uzoq yillar davomida Harvard universiteti iqtisod fakultetini boshqargan Artur Smit o'zining "AQShda budget jarayoni" asarida budget jarayonini doimiy davom etuvchi olti bosqichdan iborat jarayon

deb ataydi. Uning fikricha, mazkur jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) siyosiy maqsadlarni aniqlashtirib olish;
- 2) rejalashtirish;
- 3) dasturlashtirish;
- 4) budgetni tuzish va qabul qilish;
- 5) budgetni ijro etish;
- 6) budgetni tahlil qilish.

Germaniyalik olim Jürgen Von Hagen fikriga ko'ra, budget jarayonini to'rt bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich – ijroiya hokimiyati tomonidan rejalashtirish bosqichi ("executive planning stage"). Mazkur bosqich tegishli moliyaviy yildan 1 yil avval boshlanadi va qonun chiqaruvchi organga budget loyihasi taqdim etish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich – qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlash bosqichi ("legislative approval stage"). Unda budget loyihasiga o'zgartirishlar kiritiladi va mazkur bosqich budget to'g'risida qonun qabul qilinishi bilan yakunlanadi. Uchinchi bosqich – ijroiya organi tomonidan amalga oshirish bosqichi ("executive implementation stage"). U budget qonuni amal qiladigan moliya yilini qamrab oladi. To'rtinchi bosqich – hisobot bosqichi ("ex post accountability stage"). Unda budgetning auditorlar tomonidan qonunchilikda belgilangan daromadlar va xarajatlarga mosligi tekshiruvdan o'tkaziladi.

Ключевые слова: экология, окружающая среда, государственное управление, республиканский орган исполнительной власти, принцип, метод

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE ACTIVITIES OF SPECIALLY AUTHORIZED REPUBLICAN EXECUTIVE AUTHORITIES IN THE FIELD OF ECOLOGY: PRINCIPLES AND METHODS

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,

Deputy Head of the Department
of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical aspects of the activities of specially authorized republican executive authorities in the field of ecology. In particular, based on the opinions of domestic and foreign legal scholars, the basic principles and methods of activity of specially authorized bodies engaged in public administration in the field, as well as their specifics, were highlighted. It is proved that there is no single approach among legal scholars to the basic principles of government activities in the industry. It is also highlighted that the existing principles can be divided into general legal and environmental principles inherent in public administration. The article highlights the characteristic features of the “polluter pays” principle, one of the principles of public administration in the field of ecology and environmental protection, as well as issues related to its consolidation in national legislation.

Keywords: ecology, environment, public administration, republican executive authority, principle, method

Kirish

Prinsiplar davlat boshqaruvi tizimida katta ahamiyatga ega bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi funksiyalarning qat'iy yo'nalishlarini belgilaydi. Binobarin, davlat boshqaruvi organlarining ekologiya sohasidagi faoliyatida prinsiplarning aniq belgilanishi, o'z navbatida, ushbu muhim sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishiga va pirovardida, atrof-muhit holatining barqarorligini ta'minlashga hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir mamlakatdagi mavjud huquqiy tizimning mohiyati huquqiy prinsiplar orqali namoyon bo'ladi. Shu bois, huquqni to'g'ri tushunish va qo'llashda huquq prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Prinsip masalasi davlat va huquq nazariyasida olimlar tomonidan keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Shuning uchun huquqning tamoyillari va ularning mavjudlik asoslari haqida ko'plab huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari mavjud.

Asosiy qism

X. Odilqoriyevning (2018) ta'kidlashicha, “Prinsip kategoriyasi “qonuniyat”, “mohiyat”

kategoriyalari bilan uzviy bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, huquqiy tizimning mohiyati uning asosiy prinsiplari mazmunida namoyon bo'ladi. Huquqiy tizim prinsiplari huquqning butun ichki tuzilishini, mazmunini qamrab oladi hamda boshqa ijtimoiy tizimlar bilan aloqasi va o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi".

Ushbu fikrni ma'qullagan holda mazkur masalani batafsil tadqiq qilish uchun davlat boshqaruvi prinsiplari, xususan, ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatining prinsiplari yuzasidan olimlarning qarashlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaymiz.

Davlat boshqaruvi prinsiplariga to'xtalib o'tgan X. Odilqoriyev va b.ning qayd etishi-cha, "Davlat boshqaruvida qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi prinsipi, qonuniylikning yagonaligi prinsipi, davlat boshqaruvining xalq manfaatlarini yo'lida amalga oshirilishi prinsipi, davlat boshqaruvida xalqning ishtiroki prinsipi, davlat boshqaruvining aholi madaniy darajasi bilan bog'liqligi prinsipi, davlat boshqaruvining demokratik jarayonlar bilan bog'liqligi prinsipi muhim hisoblanadi"(Odilqoriyev et al., 2010).

L. Grechinaning (2015) ta'kidlashicha, "Davlat boshqaruvi prinsiplari – davlat boshqaruvi tizimi, tuzilmasi va jarayoni asoslanadigan asosiy tamoyillar, g'oyalar to'plamidir. Bularga qonun ustuvorligi, xalq hokimiyati, javobgarlik, inson va fuqarolar huquq hamda erkinliklarini ta'minlash, hokimiyatning taqsimlanishi, davlat boshqaruvini markazlashtirish va nomarkazlashtirishni muvofiqlashtirish, shaffoflik, tarmoq va funksional prinsiplar, boshqaruvda yakdillik va jamoaviylik prinsipi, ilmiylik, vakolatlarni o'tkazish va boshqalarni kiritish mumkin".

Davlat boshqaruvining prinsiplari to'g'risida to'xtalib o'tgan S. Bratanovskiy (2013) tomonidan davlat boshqaruvi prinsiplari konstitutsiyaviy va tashkiliy turlarga bo'lingan holda tadqiq etilgan. Unga ko'ra,

"Konstitutsiyaviy prinsiplar sirasiga davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning ishtiroki, demokratizm, qonuniylik, federalizm prinsipi, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustunligi, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishdagi tengligi, davlat boshqaruvida oshkorlik va jamoatchilik eshituvi prinsipi kiradi. Tashkiliy prinsiplarga funksiyalar va vakolatlarni taqsimlash va normativ belgilash tamoyillari, davlat boshqaruvini markazlashtirish va nomarkazlashtirish prinsipi, tarmoq boshqaruvi prinsipi, tarmoqlararo boshqaruv prinsipi, hududiy-tarmoq prinsipi kiradi".

Huquqshunos olimlar tomonidan keltirilgan prinsiplar umumhuquqiy prinsiplar hisoblanib, huquqning barcha sohalari uchun mos tushadi.

Ta'kidlash joizki, huquqshunos olimlar o'rtasida ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi prinsiplari yuzasidan yagona fikr mavjud emas. Jumladan, J. Xolmo'minovning (2003) ta'kidlashiga ko'ra, "Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini ta'minlash inson hayoti va sog'lig'ini ta'minlash maqsadida tabiat obyektlarini saqlash va tiklab borish; tabiat resurslariga nisbatan davlat mulkchiligi; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik muammolarni hal qilishga davlatning alohida e'tibor berishi; ekologiya sohasida davlat boshqaruvini olib borish, tashkil etish va bajarish jarayonida turli samarali iqtisodiy metodlardan foydalanish lozimligi; ekologik muammolarni hal qilishda keng jamoatchilik, fuqarolar, jamoat tashkilotlari va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarini jalb qilish; demokratik sentralizm va qonuniylik; kelajak avlod oldida ekologik muammolarni hal etishdagi javobgarlik kabi bir qator prinsiplarga amal qilishni talab etadi".

M. Brinchukning (1998) fikriga ko'ra, "Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi bir qator aniq tamoyillarga asoslanadi va boshqaruvning qonuniyligi; tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari-

ni hal qilishda kompleks yondashuv; tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarishni tashkil etishning havzaviy va ma'muriy-hududiy tamoyillarining uyg'unligi; maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatini tashkil etishda xo'jalik, operativ hamda nazorat funksiyalari alohida ahamiyatga ega".

B. Yerofeyev ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi prinsiplarini tahlil qilib, "Atrof-muhitni boshqarish va muhofaza qilishni davlat tomonidan tartibga solishda qonuniylik; atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvorligi; atrof-muhitni davlat tomonidan tartibga solganlik uchun to'lov; davlat tomonidan tartibga solishning mahalliy o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liqligi kabi boshqaruvning umumiy tamoyillaridan foydalaniladi", deb ta'kidlaydi (Erofeev, 1996).

I. Gerasimova (1998) mazkur sohadagi umumiy prinsiplarni quyidagicha qayd etadi: "Fuqarolarning qulay muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash prinsipi; ekologik va iqtisodiy manfaatlarining ilmiy asoslangan bog'liqligi prinsipi; barqaror rivojlanish prinsipi; atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi uchun to'lovlar prinsipi; atrof-muhitga zararli ta'sir uchun davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar jamoat birlashmalarining o'zaro bog'liqligi; qonuniylik prinsipi".

I. Gerasimovadan farqli o'laroq Bronina va Krasov (1990) quyidagilarni mazkur sohadagi davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari sifatida e'tirof etadi: "Tabiiy resurslarning milliy ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tan olish; tasarruf etish funksiyalari va ulardan iqtisodiy foydalanish funksiyalarini aniq ajratish; doimiy integratsiyalashgan korxonalarni tashkil etish asosida tabiiy resurslardan uzluksiz, bitmas-tuganmas va oqilona foydalanish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda boshqarishning tarmoq va hududiy shakllarini samarali muvofiqlashtirish; boshqaruvda iqtisodiy usul va shakl-

larning yetakchi roli, ijara va to'lovdan keng foydalanish; turli tabiiy obyektlarni boshqarishni tashkil etishga tabaqalashtirilgan yondashuv".

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur prinsiplarning aksariyatini ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv prinsiplari sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Chunki ushbu prinsiplar ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv mazmunini to'liq ochib bermaydi.

Mazkur masalani tadqiq qilgan S. Balashenkoning (2013) qayd etishicha, "tabiatni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish funksiyalarini ajratish va kompetensiyalar (vakolatlar)ni aniq belgilash; fuqarolarning qulay muhitga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydigan ustuvor yo'nalishlarni ta'minlash; davlat tomonidan tartibga solishning mahalliy tashabbuskorlik, jamoatchilik ishtiroki bilan uyg'unligi; davlat boshqaruvi organlarining nafaqat iyerarxik tizimda, balki jamoatchilikning ham nazorati ostidaligi; boshqaruv organlari qarorlari ustidan shikoyat qilishning ma'muriy va sud tartibini kafolatlash; atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida salbiy oqibatlariga olib kelgan qarorlar uchun davlat organlari va davlatning javobgarligi; axborot berish va atrof-muhit sohasida ishonchli ma'lumot olish huquqi; qabul qilinayotgan qarorlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi va ekspertizasi kabi prinsiplar sohadagi davlat boshqaruvining asosiy mazmunini qamrab oladi".

Fikrimizcha, S. Balashenko (2000) tomonidan taqdim etilgan prinsiplar ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining mohiyatini ochib bersada, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida keng qo'llanayotgan "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipi e'tibordan chetda qolmoqda. Bu rivojlangan mamlakatlarda o'rnatilgan eng samarali tartib-qoidalardan biri bo'lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsiyalarida, shuningdek, 2003-yilda qabul qilingan Kaspiy dengizi atrof-muhitini muhofaza qilish bo'yicha Hadli konvensiyasida mustahkamlangan.

Ushbu prinsip texnogen chiqindilarning tarkibi va intensivligiga qarab atrof-muhitning ifloslanishi natijasida korxonalar tomonidan iqtisodiyot va inson salomatligiga yetkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy zararni pul bilan qoplashni anglatadi.

“Ifloslantiruvchi to'laydi” prinsipi O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunining 34-moddasida belgilangan bo'lib, unga muvofiq, tabiatdan maxsus foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun haq undiriladi.

Nazarimizda, ushbu normani amaliyotda qo'llashda bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, ifloslantiruvchini aniqlashtirish muammosi mavjud. Atrof-muhitning ifloslanishi uchun bevosita yoki bilvosita ifloslantirgan, yoki bunday ifloslanishga olib keladigan shart-sharoitlarni yaratgan jismoniy va yuridik shaxslar javobgar hisoblanadi. Ammo ifloslantiruvchi subyektini aniqlash qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchidan, ba'zi hollarda ifloslanish bir vaqtning o'zida bir nechta manbadan kelib chiqishi yoki ketma-ket sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, avtomobildan chiqadigan zararli gazlar uchun avtomobil ishlab chiqaruvchi ham, avtomobil egasi ham ifloslanish uchun aybdor hisoblanadi. Bunday hollarda tegishli xarajatlar ma'muriy va iqtisodiy nuqtayi nazardan maqbul yechimni ta'minlaydigan va atrof-muhitni yaxshilashga maksimal ta'sir ko'rsatadigan tarzda taqsimlanishi kerak.

Bundan tashqari, ushbu prinsipni tahlil qilgan A. Zahar (2017) davlat hokimiyati organi ifloslantiruvchi korxona o'zining faoliyati natijasida ifloslantirish darajasi to'g'risida haqqoniy hisobotlarni berayotganini tekshirish va to'lovlarni tasdiqlangan miqdorlarda to'lanishini nazorat qilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda ushbu tamoyilning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi hu-

dudida atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 202-son qaroriga muvofiq, “Ifloslantiruvchi to'laydi” tamoyilidan kelib chiqib, korxona va tashkilotlarda chang-gaz tozalash uskunalarining samaradorligi past bo'lganda yoki umuman o'rnatilmaganda, shuningdek, belgilangan me'yorlardan ortiqcha tashlamalar chiqarilganda atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalar uchun belgilangan bazaviy stavkalar yuqori darajada hisoblanishi belgilangan.

Mazkur prinsipni qo'llash masalasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev (2023) quyidagi fikrlarni ta'kidlagan: “Sohada dunyo tajribasida keng qo'llanayotgan “Ifloslantiruvchi to'laydi” tamoyili asosida yangi tartib joriy qilish kerak. Ya'ni mahsulotdan hosil bo'ladigan chiqindini utilizatsiya qilish uni ishlab chiqaruvchi korxonalar hisobidan qoplanishi lozim. Bu xarajatlarning odamlarga og'irligi tushmasligi kerak”.

Ushbu prinsipning amaliyotga keng joriy etilishi atrof-muhitni muhofaza qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va turli subyektlar tomonidan tabiatga chiqariladigan zararli vositalar ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Huquqshunos olimlar tomonidan keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, S. Balashenkoning ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi prinsiplari hamda xalqaro tan olingan “Ifloslantiruvchi to'laydi” prinsipi mazkur sohadagi davlat boshqaruvi organlari faoliyati mazmunini to'liq ochib berishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshirishda prinsiplar bilan bir qatorda boshqaruv metodlari va shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat boshqaruvi murakkab tizim bo'lib, uni muayyan metod va shakllarsiz amalga oshirishning imkoniyati mavjud emas.

Boshqaruv metodlari huquqshunoslar tomonidan ko'p muhokama qilinadigan munozarali masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, M. Tilayev boshqaruv metodi o'z oldida turgan vazifalarni amalga oshirishning aniq usuli ekanini, ya'ni metod boshqaruv faoliyatining faktik mazmunini tashkil etishini ta'kidlaydi.

S. Balashenko (2000) esa boshqaruv metodlari tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida boshqariladigan obyektlarning xatti-harakati va faoliyatiga ta'sir qilish usullari ekanini ta'kidlaydi.

Nazarimizda, huquqshunoslar tomonidan keltirilgan fikrlar tahlili boshqaruv metodining asosiy mazmuni boshqaruv ostidagi obyektlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish usuli ekanini ko'rsatadi.

Mazkur huquqshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, ekologiya sohasidagi boshqaruvi metodlari vakolatli davlat boshqaruvi organlarining atrof-muhitni boshqarish va uni muhofaza qilishni ta'minlash uchun boshqariladigan obyektlarning xatti-harakatlari va faoliyatiga ta'sir qilish usullari hisoblanishini ta'kidlashimiz mumkin.

Muayyan sohada boshqaruv turli usullar orqali amalga oshiriladi. Huquqshunos olimlar tomonidan boshqaruv usullarining o'zaro farqlanadigan bir qancha turlari mavjudligi ta'kidlanadi. Jumladan, G. Atamanchuk (1975) boshqaruvning axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy usullarini ajratib ko'rsatadi.

S. Balashenko (2000) boshqaruv usullarining quyidagi uch turini ta'kidlaydi:

1. Ma'muriy, ya'ni davlat tomonidan majburlash imkoniyati bilan ta'minlangan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hokimiyatning to'g'ridan to'g'ri buyrug'idan foydalanish.

2. Iqtisodiy – korxonalar, tashkilotlar, mehnat jamoalari, fuqarolarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv organlari qarorlarini amalga oshirishdan bevosita moddiy manfaatdorligini yaratish.

3. Rag'batlantirish choralarini qo'llash orqali ham, huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatish

shaklida ham amalga oshiriladigan ma'naviy rag'batlantirish usullari.

V. Chirkin (2004) esa rag'batlantirish, ruxsat berish, muhofaza qilish, taqiqlash va javobgarlikni o'rnatish kabi metodlarni sanab o'tadi.

M. Brinchukka (1998) ko'ra, "Mazkur sohada quyidagi ikki metod mavjud: buyruq berish, ruxsat berish, taqiqlash, majburlashni o'z ichiga olgan ma'muriy-huquqiy va huquqiy munosabat taraflarining tengligiga asoslangan fuqarolik-huquqiy metod".

M. Brinchukdan farqli yondashuvni taklif etgan Y. Pirogovaning (2010) fikricha, "Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida quyidagi usullar asosiy rol o'ynaydi: ma'muriy-huquqiy, mafkuraviy va ekologiyalashtirish".

Fikrimizcha, M. Brinchuk tomonidan keltirilgan usullar bu sohada boshqaruvning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Milliy qonunchilik tahlili ushbu sohada ma'muriy-huquqiy usullar keng qo'llanayotganligini ko'rsatmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni "IV. Atrof tabiiy muhit sifatini normativlar bilan tartibga solish", "V. Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish", "VI. Ekologiya ekspertizasi", "VII. Ekologik nazorat", "IX. Favqulodda ekologiya vaziyatlari", "X. Xo'jalik faoliyati va boshqa yo'sindagi faoliyatga doir ekologiya talablari" kabi boblarida hokimiyatning ma'muriy-huquqiy ta'sir usullari aks ettirilgan.

Xulosa

Yuqorida olimlar tomonidan keltirilgan metodlardan ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvida keng foydalaniladi. Lekin har qanday faoliyatni amalga oshirishda yagona metoddan foydalanish imkonsiz. Chunki har bir ijtimoiy munosabat o'z xususiyatidan kelib chiqib, muayyan o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Ba'zi munosabatlarni tartibga solishda ma'muriy-huquqiy metodlar samarali bo'lsa, boshqa munosabatlarni tartibga solishda

iqtisodiy metodlar samarali hisoblanadi. Shu jihatdan, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida boshqaruv metodlarini tanlashda ijtimoiy munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytganda, ekologiya sohasida davlat boshqaruvining prinsiplari, metodlari va shakllari boshqaruvning zaruriy tarkibiy qismlari hisoblanib, sohada davlat boshqaruvining asosiy mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Atamanchuk, G. V. (1975). *Gosudarstvennoe upravlenie, problemy metodologii pravovogo issledovaniya* [Public administration, problems of methodology of legal research] (p. 240). Moscow: Jurid. lit. Publ.
2. Bratanovskiy, S. N. (2013). *Administrativnoe pravo* [Administrative Law] (p. 305). Moscow: Direct-Media Publ.
3. Brinchuk, M. M. (1998). *Ekologicheskoe pravo (pravo okruzhayushchey sredy)* [Environmental law (environmental Law)] (p. 688). Moscow: Yurist Publ.
4. Bronina, L. V., & Krassov, O. I. (1990). *Rabotniki lesnogo khozyaystva. Pravovyye voprosy* [Forest workers. Legal issues] (pp. 44–45). Moscow.
5. Balashenko, S. A., et al. (2013). *Ekologicheskoe pravo* [Environmental Law] (p. 240). Minsk: BSU Publ.
6. Balashenko, S. A. (2000). *Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushchey sredy* [Public administration in the field of environmental protection] (p. 137). Minsk: BSU Publ.
7. Chirkin, V. Y. (2004). *Publichnoe upravlenie* [Public administration] (pp. 51–53). Moscow: Lawyer Publ.
8. Gerasimova, I. A. (1998). *Upravlenie prirodopol'zovaniem i okhrany okruzhayushchey sredy* [Environmental management and protection] (pp. 50–66). Orenburg.
9. Grechina, L. A. (2015). *Administrativnoe pravo Rossiyskoy Federatsii* [Administrative law of the Russian Federation] (p. 112). Moscow: RG-Publ.
10. Xolmuminov, J. T. (2003). O'zbekiston Respublikasi ekologiyasi [Environmental Law of the Republic of Uzbekistan] (p. 268). Tashkent: Academy of the Republic of Uzbekistan Publ.
11. Mirziyoyev, Sh. (2023, August 9). *Atrof-muhitni muhofaza qilish, maishiy chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha yig'ilishdagi nutqidan* [From his speech at a meeting on environmental protection and the development of a system for collecting and recycling household waste].
12. Odilqoriyev, H. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of State and Law] (p. 528). Tashkent: Adolat Publ.
13. Odilqoriyev, H. T., Ismoilov, I., Ismoilov, N. T., et al. (2010). *Ma'muriy huquq* [Administrative Law] (p. 640). Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan Publ.
14. Pirogova, Y. (2010). *Pravovye i organizatsionnye osnovy deyatel'nosti federal'nykh organov ispolnitel'noy vlasti v sfere prirodopol'zovaniya i okhrany okruzhayushchey sredy* [Legal and organizational bases of the activities of federal executive authorities in the field of nature management and environmental protection] (p. 142). [Dissertation of the Candidate of Law]. Moscow.
15. Vinokurova, Yu. Y. (2005). *Ekologicheskoe pravo* [Environmental law] (pp. 17–18). Moscow: Exam Publ.
16. Erofeev, B. V. (1996). *Ekologicheskoe pravo Rossii* [Environmental legislation of Russia] (pp. 208–210). Moscow.
17. Zahar, A. (2017, May 20). *The Polluter-Pays Principle and its Implications for Environmental Governance in China*. China.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 24.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/OCVN1494

UDC: 342.9:336.74(045)(575.1)

РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ КРИПТОВАЛЮТ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Ганиев Боходир Рустам угли,

преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

ORCID: 0009-0009-9962-7367

e-mail: bahodirganiyev0808@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется нормативно-правовая база Узбекистана в сфере криптоактивов с акцентом на институциональную архитектуру (Национальное агентство перспективных проектов), лицензирование поставщиков услуг в сфере виртуальных активов (VASP), а также надзорные процедуры и меры принудительного исполнения. Начиная с 2022 года сформирован специальный правовой режим: Национальное агентство перспективных проектов осуществляет нормотворческие и лицензирующие полномочия, а обращение и майнинг криптоактивов подчинены процедурам административного допуска и контроля. В работе сопоставляются «процедуралистский» подход (административное право как рамка легитимного публичного вмешательства) и «материальный» подход (финансово-потребительские гарантии). На основе нормативных актов и практики Национальным агентством перспективных проектов (выдача и приостановление лицензий в 2023–2025 годы) предлагаются направления совершенствования: унификация терминологии, создание публичных реестров надзорных методик, переход к риск-ориентированному ценообразованию в сфере майнинга, расширение режима «регуляторной песочницы». Национальные и зарубежные кейсы демонстрируют взаимосвязь между процедурной справедливостью (право быть выслушанным, мотивировка, контроль усмотрения) и финансовым комплаенсом (AML/CFT, защита прав потребителей). В статье делается вывод о том, что необходима кодификация базовых административных процедур в отношении цифровых активов при одновременной конвергенции с финансовым и ИКТ-правом. Методологическую основу исследования составляют сравнительный, догматический и институциональный анализ.

Ключевые слова: криптоактивы, цифровые активы, административно-правовое регулирование, Национальное агентство перспективных проектов, лицензирование, поставщики услуг в сфере виртуальных активов (VASP)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTOVALYUTA SOHASIDAGI FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISH

Ganiyev Boxodir Rustam o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning kriptovalyuta sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazasi institutsional arxitektura (Istiqbolli loyihalar milliy agentligi), virtual aktivlar sohasida xizmat

ko'rsatuvchi provayderlarni litsenziyalash (VASP), shuningdek, nazorat tartib-taomillari va majburiy ijro choralari e'tibor qaratgan holda tahlil qilingan. 2022-yildan boshlab maxsus huquqiy tartib shakllantirildi: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi norma ijodkorligi va litsenziyalash vakolatlarini amalga oshiradi, kriptoaktivlar aylanmasi va mayningi esa ma'muriy ruxsat berish va nazorat qilish tartib-taomillariga bo'sundiriladi. Maqolada "protseduraviy" yondashuv (ma'muriy huquq qonuniy ommaviy aralashuv doirasi sifatida) va "moddiy" yondashuv (moliyaviy-iste'mol kafolatlari) taqqoslangan. Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyot asosida Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan (2023–2025-yillarda litsenziyalarni berish va to'xtatib turish) takomillashtirish yo'nalishlari taklif etilmoqda: terminologiyani yagona shaklga keltirish, nazorat metodikalarining ommaviy reyestrlarini yaratish, mayning sohasida riskka yo'naltirilgan narxlarni shakllantirishga o'tish, tartibga soluvchi "regulyator box" (sandbox) mexanizmini rivojlantirish. Milliy va xorijiy amaliy misollar protsessual adolatlilik (tinglash huquqi, motivatsiya, ixtiyoriylikni nazorat qilish) va moliyaviy komplayens (AML/CFT, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Natijalarga ko'ra raqamli aktivlarga nisbatan bazaviy ma'muriy tartib-taomillarni moliyaviy va AKT huquqi bilan bir vaqtning o'zida konvergensiya qilishda kodifikatsiyalash zarur degan xulosaga kelingan. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, formal-huquqiy va institutsional tahlillar tashkil etadi.

Kalit so'zlar: kriptoaktivlar, raqamli aktivlar, ma'muriy-huquqiy tartibga solish, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, litsenziyalash, virtual aktivlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi provayderlar (VASP)

REGULATION OF CRYPTOCURRENCY ACTIVITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ganiev Bokhodir Rustam ugli,

Lecturer at the Department of the Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. The article analyzes the regulatory framework of Uzbekistan in the field of crypto assets, focusing on institutional architecture (National Agency for Perspective Projects) and licensing of providers of services in the field of virtual assets (VASP), as well as control procedures and enforcement measures. Since 2022, a special legal procedure has been formed: the National Agency for Perspective Projects exercises regulatory and licensing powers, and the circulation and mining of crypto assets are subject to administrative permitting and control procedures. The article compares the "procedural" approach (administrative law as a sphere of legal public intervention) and the "material" approach (financial and consumer guarantees). Based on regulatory legal acts and practice, the National Agency for Perspective Projects proposes directions for improvement (issuance and suspension of licenses in 2023-2025): unification of terminology, creation of public registers of control methods, transition to risk-oriented pricing in the mining sector, and development of the regulatory "regulatory box" (sandbox) mechanism. National and foreign practical examples show a correlation between procedural fairness (right to be heard, motivation, voluntary control) and financial compliance (AML/CFT, consumer rights protection). Based on the results, it was concluded that it is necessary to codify basic administrative procedures for digital assets when converging simultaneously with financial and ICT law. The methodological basis of the research consists of comparative legal, formal legal and institutional analysis.

Keywords: crypto-assets, digital assets, administrative and legal regulation, National Agency for Perspective Projects, licensing, virtual asset service providers (VASP)

Введение

Узбекистан последовательно формирует «процедурно-центричную» модель регулирования цифровых активов, в кото-

рой ключевые элементы, такие как допуск на рынок, надзор и ответственность, выстраиваются через систему административных процедур (лицензирование про-

вайдеров услуг с цифровыми активами – VASP, ведение реестров, приостановление и аннулирование лицензий). Такая модель демонстрирует стремление к институциональной стабильности и прозрачности правоприменения. Эволюция регулирования проходит два этапа. Так, в 2018 году нормативно закреплена автономия оборота криптоактивов от классического биржевого и фондового регулирования, а в 2022 году осуществлена институциональная перезагрузка – создано Национальное агентство перспективных проектов (далее – НАПП), наделённое полномочиями нормотворчества, лицензирования и контроля. В период 2023–2025 годов формируется административная практика выдачи, приостановления и аннулирования лицензий для участников рынка (crypto-shop, crypto-exchange), а также выявлена степень эффективности административных процедур. При этом узбекская модель постепенно сближается с международными тенденциями регулирования через комплаенс, где акцент смещается на превенцию правонарушений, обеспечение финансовой прозрачности и защиту прав потребителей. В то же время сохраняется национальная специфика – акцент на административно-правовых механизмах допуска и надзора, что отражает поиск баланса между инновационностью и юридической определённости.

Использованы материалы и методы: а) анализ нормативно-правовых актов (указ 2022 г., постановления, приказы по лицензированию, положения о майнинге); б) институциональный анализ (роль НАПП); в) сравнительный метод (опыт ЕС, Великобритании, США, Сингапура).

Основная часть

Результаты исследования. В последние годы тема криптовалют становится всё более обсуждаемой в Узбекистане – не просто как «модное» явление, а как потенциально реальный инструмент.

Регулирование криптовалют и технологии блокчейн давно является предметом дискуссий в Узбекистане – относительно того, какой тип регулирования (мягкий или жёсткий) следует применять. В конечном итоге правительство приняло решение о выборе более взвешенного и детально проработанного подхода к регулированию данной сферы.

Важнейшим аспектом является то, что правительство определило криптовалюты как активы, а не как средство платежа или ценные бумаги. Согласно последнему определению, криптоактив – это имущественное право, представляющее собой набор цифровых записей в распределённом реестре данных, имеющий стоимость и владельца. Однако вопросы о том, является ли криптоактив финансовым инструментом (ценными бумагами), то есть может ли он быть выпущен и продан, и в каком случае криптоактивы можно считать ценными бумагами, остаются открытыми.

В Европейском союзе с принятием в мае 2023 года европейского регламента о криптоактивах – MiCA (Markets in Crypto-Assets Regulation) регулирование включает следующие виды криптоактивов: токены электронных денег (криптоактивы, стабилизирующие свою стоимость по отношению к единой официальной валюте); токены, привязанные к активам (криптоактивы, стабилизирующие свою стоимость по отношению к другим активам или корзине активов); криптоактивы, отличные от токенов, привязанных к активам, или токенов электронных денег (например, токены полезности).

В данной статье рассматривается законодательство Узбекистана и обсуждаются некоторые особенности регулирования этой сферы (Harlow & Rawlings, 2021). Деятельность с криптовалютами должна осуществляться через лицензированные платформы, с обязательным соблюдением процедур KYC (идентификации клиента)

и AML (борьбы с отмыыванием денег). Отметим, что право совершать сделки с криптовалютой внутри страны имеют только резиденты Узбекистана.

Анализ результатов исследования. Криптовалюты становятся доступными даже для людей с небольшими финансовыми возможностями: участие не требует значительного стартового капитала. В материалах подчёркивается, что, несмотря на признание криптоактивов законными инвестиционными инструментами, в Узбекистане сохраняются существенные юридические ограничения, которые необходимо учитывать. В научной литературе одновременно анализируются социальные и экономические аспекты внедрения криптотехнологий, их влияние на финансовую систему и трансформацию общественных отношений (Atajonov, 2023).

Несмотря на разрешительный подход, существуют значительные ограничения (Atajonov, 2023):

- использование криптовалют в качестве средства расчёта за товары и услуги официально запрещено;

- осуществление операций вне лицензированных платформ может квалифицироваться как нарушение законодательства;

- высокая волатильность криптоактивов делает их особенно рискованными для неопытных инвесторов;

- ключевое значение имеют надёжное хранение ключей, защита от мошенничества и соблюдение корректных процедур проведения транзакций.

Законодательно Узбекистан начал предпринимать шаги по регулированию криптовалют и других блокчейн-технологий в 2018 году. 3 июля 2018 года Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев принял постановление № ПП-3832 «О мерах по развитию цифровой экономики и сферы обращения криптоактивов в Республике Узбекистан». 27 апреля 2022 года Президент Узбекистана принял Указ

№ УП-121, который кардинально изменил регулирование криптотехнологий в Узбекистане (Harlow & Rawlings, 2021).

Согласно вышеуказанному постановлению, НАПП устанавливает режим особого регулирования в сфере оборота криптоактивов (режим специальных «регуляторных песочниц»), который предусматривает создание особых организационно-правовых условий для юридических лиц, реализующих технологии в сфере оборота криптоактивов. Участники специального режима после регистрации в установленном порядке осуществляют реализацию пилотных проектов без получения лицензий и разрешений в сфере оборота криптоактивов. В рамках реализации пилотных проектов в специальном режиме действуют льготы и преференции, предусмотренные законодательными актами. Срок реализации пилотных проектов в рамках специального режима составляет не более трёх лет (Harlow & Rawlings, 2021). Кроме того, в соответствии со статьёй 24 Закона Республики Узбекистан «О государственной пошлине», подпунктом «ж» пункта 3 постановления Президента Республики Узбекистан от 3 июля 2018 года № ПП-3832 «О мерах по развитию цифровой экономики и сферы оборота криптоактивов в Республике Узбекистан» и приказом директора НАПП от 5 декабря 2024 года № 100 установлены размеры государственной пошлины за выдачу лицензии на осуществление деятельности провайдеров услуг в сфере оборота криптоактивов. Пошлина взимается в кратных размерах базовой расчётной величины, действующей на дату её уплаты (Taniyev, 2021).

Таким образом, постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-3832 введён режим специальных «регуляторных песочниц» (Isaeva, 2017) – с целью стимулирования инноваций и

создания гибких условий для стартапов, при этом НАПП установило размеры государственной пошлины за выдачу лицензий провайдерам криптоуслуг. В результате возникла правовая коллизия: с одной стороны, компании вправе работать без лицензии, с другой – должны её оформлять и оплачивать госпошлину. Дополнительную неопределённость создаёт отсутствие чёткого механизма перехода из пилотного режима в постоянный и критериев завершения проектов. Таким образом, регулирование криптоактивов в Узбекистане нуждается в уточнении и унификации: ведомственные приказы должны быть приведены в соответствие с президентскими указами, чтобы обеспечить правовую определённость и прозрачность для участников рынка.

Заключение

Анализ законодательства Узбекистана в сфере оборота криптоактивов показывает, что страна выбрала путь поэтапного и процедурно-ориентированного регулирования, при котором акцент сделан на лицензировании, надзоре и административных механизмах контроля. Такой подход позволил создать базовую инфраструктуру для функционирования рынка криптоуслуг, однако практика последних лет выявила ряд противоречий между различными нормативно-правовыми актами.

С одной стороны, президентские указы и постановления предусматривают особый режим «регуляторных песочниц», предоставляющий компаниям возможность разрабатывать и тестировать инновационные решения без необходимости получения лицензий, с другой – ведомственные приказы вводят обязательные лицензионные сборы, что фактически нивелирует преимущества экспериментального режима.

В результате формируется правовая неопределённость, способная замедлить развитие отрасли и снизить инвестиционную привлекательность рынка криптоактивов. Для её преодоления необходимо гармонизировать систему нормативно-правовых актов, чётко разграничить временные и постоянные режимы регулирования, а также выработать прозрачные критерии перехода из пилотной стадии в коммерческую деятельность.

Тем не менее предпринимаемые шаги свидетельствуют о стремлении государства интегрировать инновационные технологии в экономику при сохранении контроля и защиты прав участников. В перспективе комплексное обновление законодательства позволит Узбекистану стать одним из региональных центров по развитию безопасных и устойчивых криптотехнологий.

REFERENCES

1. Abdurakhmanova, N. (2024). Legal regulation of use of crypto currencies in international transactions. *World Bulletin of Management and Law (WBML)*.
2. Atajanov, Kh. (2023). Obshchestvo i innovatsii [Society and Innovation]. *Cryptocurrency legislation of the Republic of Uzbekistan*, 348–352.
3. Ayupov, R. Kh. (2020). *Novyye tekhnologii v tsifrovoy ekonomike i elektronnoy kommertsii [New technologies in the digital economy and e-commerce]* (p. 554). Tashkent: Nizami Tashkent State Pedagogical University Publ.
4. Ayupov, R. (2019). *Blokcheyn-tekhnologii v tsifrovoy ekonomike [Blockchain technologies in the digital economy]*. Economics and Finance Publ.

5. Balashova A., Dergachev V., Kolomychenko M., & Parfentieva I. (n. d.) Stat'i RBK: Bitkoin i elektrichestvo [RBC articles: Bitcoin and blockchain]. <https://www.rbc.ru/>
6. Buckley, R. (2017). Regtech and suptech. *Northwestern Journal of International Law & Business*, 37(3), 371–413.
7. Felix, I. L. (2023). *Fin tech regulation and supervision challenges within the banking industry: a comparative study within the G-20*. Palgrave Macmillan Publ.
8. Harlow, C., & Rawlings, R. (2021). *Law and Administration* (4 ed., p. 952). Cambridge: CUP Publ.
9. Hogan Lovells. (2023, June). UK: FCA introduces new rules for marketing cryptoassets to UK consumers. <https://www.hoganlovells.com/en/publications/uk-fca-introduces-new-rules-for-marketing-cryptoassets-to-uk-consumers#:~:text=The%20FCA%20has%20published%20its,financial%20promotion%20rules%20for%20cryptoassets>
10. Isaeva, F. (2017). *Nalogovoye pravo [Tax law]* (p. 270). Tashkent: TSUL Publ.
11. NAPP. (2022). *Provaydery uslug [Service providers]*. <https://napp.uz/ru/pages/service-providers>
12. Preethi, V., Bhawana, J., & Shyam, A. V. (2024). Regulations and Fintech: A Comparative Study of the Developed and Developing Countries. *Risk Financial Manag*, 17(8), 324. <https://doi.org/10.3390/jrfm17080324>
13. Ruzakova, O. A., & Grin, E. S. (2017). Primenenie tekhnologii blockchain dlya sistematizatsii rezul'tatov intellektual'noy deyatel'nosti [Application of Blockchain technology to systematization of intellectual property results]. *Perm University Bulletin: Legal Sciences*, 38, 508.
14. Taniev, A. (2021). Tekhnologii blokcheyn i kriptovalyut [Blockchain and cryptocurrency technologies]. *SamDU Magazine*, 150. Samarkand.
15. Tazhanov, X. (2023). Crypto legislation in Uzbekistan: overview. *Law & Digital Economy*, 2, 15–28.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/YE0U7120

UDC: 347(045)(575.1)

THE CONCEPT AND ESSENCE OF CORPORATE GOVERNANCE IN JOINT STOCK COMPANIES AS A LEGAL CATEGORY

Raxmonov Otabek Kuchkor ugli,
Lecturer at the Department of Administrative
and Financial Law,
Tashkent State University of Law
ORCID: 0000-0001-7511-2216
e-mail: otabekrakhmon@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the concept of corporate governance in joint-stock companies as a legal category. The article highlights the theoretical foundations of corporate governance, the factors determining its legal nature, and the basic principles reflected in the legislation of the Republic of Uzbekistan. The role of effective corporate governance in ensuring a balance of legal relations between shareholders, the supervisory board, executive bodies, and stakeholders is also emphasized. The article analyzes foreign experience and develops proposals and recommendations for improving the national legal system.*

Keywords: *corporate governance, Joint Stock Company, shareholders' rights, governing bodies, supervisory board, corporate relations, effective management, corporate culture*

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TUSHUNCHASI VA MOHIYATI HUQUQIY TOIFA SIFATIDA

Raxmonov Otabek Qo'chqor o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tushunchasi yuridik kategoriya sifatida tahlil qilinadi. Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, uning huquqiy tabiatini belgilaydigan omillar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks ettirilgan asosiy tamoyillar yoritib beriladi. Shuningdek, korporativ boshqaruvni samarali amalga oshirishning aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, ijro organlari va manfaatdor shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar muvozanatini ta'minlashdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Maqolada xorijiy tajriba tahlil qilinib, milliy huquqiy tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, aksiyadorlar huquqlari, boshqaruv organlari, kuzatuv kengashi, korporativ munosabatlar, samarali boshqaruv, korporativ madaniyat.*

ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ КАК ЮРИДИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ

Рахмонов Отабек Кучкор угли,

преподаватель кафедры «Административное
и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется понятие корпоративного управления в акционерных обществах как юридической категории. Раскрываются теоретические основы корпоративного управления, факторы, определяющие его правовую природу, а также основные принципы, закреплённые в законодательстве Республики Узбекистан. Подчёркивается значение эффективного корпоративного управления для обеспечения баланса правовых отношений между акционерами, наблюдательным советом, исполнительными органами и иными заинтересованными сторонами. Анализируется зарубежный опыт и формулируются предложения и рекомендации по совершенствованию национальной правовой системы.

Ключевые слова: корпоративное управление, акционерное общество, права акционеров, органы управления, наблюдательный совет, корпоративные отношения, эффективное управление, корпоративная культура

Introduction

Humanity has realized that under the influence of various factors, there is a need for unification, and under the influence of the same factor, individuals unite into certain societies. When regulating their relationships, the members of such a society develop a system of appropriate norms. After all, the lack of regulation of relations threatens the foundations of the unity of societies that generate social relations. But the volume of human needs cannot be limited; as a result, it is impossible to deny the need to regulate the relations of individuals who have joined together to meet certain needs.

The range of human needs is very wide and diverse, among which property needs are among the most important. In order to meet the property needs of individuals, they unite as necessary; at this stage, it becomes necessary to regulate mutual property relations between them. This is the basis of relations: the unification of two or more individuals into a single society in order to see mutual property interests creates

